

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX FAKULTETI

5111600 : milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi

4-kurs “d” guruhi talabasi

Berdiyeva Nargizaning

ABDURAHMON JOMIYNING FALSAFIY QARASHLARIDA

UMUMINSONIY QADRIYATLAR mavzuidagi

БИТИРУВ МАЛАКАЗИЙ ИШИ

Илмий раҳбар: ф.ф.д., доц. Сафарова Н.О.

Navoiy - 2014

**ABDURAHMON JOMIYNING FALSAFIY QARASHLARIDA
UMUMINSONIY QADRIYATLAR**

REJA :

KIRISH2

I BOB. ABDURAHMON JOMIYNING HAYOT YO'LI VA IJODI.....5

1. Abdurahmon Jomiyning hayoti va ijodi5
2. “Bahoriston” asaridagi umuminsoniy qadriyatlarning aks etilisi.16

**II. ABDURAHMON JOMIYNING FALSAFIY QARASHLARIDA
UMUMINSONIY QADRIYATLAR.....26**

1. Qadriyatlar tushunchasining mazmun mohiyati.26
2. Jomiy asarlaridagi umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi jamiyat hayotida aks etishi.37

XULOSA46

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI49

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. XXI asr fan – texnika eng rivojlangan asri bo'lganligi, globallashuv jarayonlarining jadallashishi tufayli jamiyat hayotida tub o'zgarish sodir bo'lmoqda. Bu o'zgarishlar ayrim qadriyatlarimizni yo'qolib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli yosh avlodni turli axborot xurujlari va ma'naviy tajovuzlardan himoya qilishda qadrlash tushunchasini mohiyatini tushunish, ilmiy nazariy asoslarini ishlab chiqish ahamiyatlidir. Bunday ilmiy nazariy asoslarini ishlab chiqishda Abdurahmon Jomiyning asarlari benihoya qimmatli metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Jomiy asaridagi insonparvarlik hamda vatanparvarlik, do'stlik, bag'rikenglik g'oyalari yosh avlod ongiga singdirish va shu g'oyalar asosida yoshlarni o'z Vatanini hurmat qilish, sevish va u bilan faxrlanish, har qanday sharoitda milliy mustaqillikni, xalqning qadriyatlari, an'analari va urf- odatlarini asrash va himoya qilish, haqiqiy insoniy tuyg'ularni e'zozlash, boshqa xalqlarga nisbatan do'stlik va birodarlik ruhida tarbiyalashda nihoyatda muhim ahamiyat kasb yetadi. Zero, “Qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakillangan va rivojlangan, o'tmishda va hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy va ma'naviy boyliklar”¹dir. Ushbu ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatga ega masalalarni ma'naviy – falsafiy jihatdan tahlil etish mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mustaqillik yillarida jomiyshunos olimlar tomonidan ushbu mavzuga yaqin bo'lgan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ular tomonidan Jomiyning bir qancha fors – tojik tilida yozilgan asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingnlar. Bu borada A.Abdullayev, A. Abdulqodirov, R. Vohidov, H. Saidhan, K. Qahhorova , A.Isayev , N. Norqulov,

¹ Falsafa. E.Yu. Yusupov, S.Sh. Shermuhammedov, A.T.Ayupov va boshq. To'ldirilgan 2-nashri. –T.: O'qituvchi. 2005. 228-b..

B. Ahmedov, B. Umurzoqov, Sh. Xayitov, M.Xolmo'minov, A. Xuseynovalar² singari jomiyshunos olimlar izlanishlar olib borganlar. Ular Abdurahmon Jomiyning hayot yo'li, ijodiy faoliyati va boy ilmiy merosini o'rganib, tahlil qilganlar.

Ishning ilmiy - tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. BMI mavzusi NavDPI "Ijtimoiy fanlar" kafedrasining "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning falsafiy asoslari va jamiyat barqarorligi, hamda madaniy qadriyatlarning ilmiy tahlili" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar dasturi doirasiga kiradi.

Tadqiqot maqsadi. Abdurahmon Jomiy asarlaridagi umuminsoniy qadriyatlarni ma'naviy, falsafiy tahlil asoslarini yosh avlod ongiga insoniylik va vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishdan iborat.

Tadqiqot vazifasi. Jomiy asarlari orqali yosh avlod ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asaridagi umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish tadqiqot ob'ekti xisoblanadi. Abdurahmon

² Abdullayev A. Ilohiy do'stlik: (Navoiy va Jomiy) Yosh kuch. – Toshkent, 1991. - №6.- B.25.; Vohidov R. Besh hayrat: Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiyning ilk uchrashuvlariga doir ayrim qaydlar. Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 1998. - №3. – B. 50-52, ; Jomiy A. Shuurimda namoyonsan damo – dam Forsiydan H. Saidhan tarjimai. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2004, ; Jomiy A. Men jonimni beraman... Shohbaytlar K. Qahhorova tarjimai. Toshkent oqshomi. – Toshkent, 1994; Isayev A. Abdurahmon Jomiy va musiqa. Xalq ta'limi. – Toshkent, 1996; Norqulov N. Abdurahmon Jomiy: 28 – dars. Ma'naviyat. – Toshkent, - 1996; Samarqandiy Davlatshoh. Nuriddin Abdurahmon Jomiy : (Buyuk alloma haqida) Forschadan B. Ahmedov tarjimai. Muloqot. – Toshkent, - 1999. - №4. – B.32; Umrzoqov B. Jomiy – Xojagon tarixining yetuk vakili. Sharq yulduzi. – Toshkent, - 2002. №4. – B. 143-145; Xayitov Sh. Ma'rifat nuri: A. Navoiy talqinida A. Jomiy. Imom al – Buxoriy saboqlari. – Toshkent, - 2003. - №2-3. – B. 107; Xayitov Sh. Barkamol inson timsoli: (A. Navoiyning A. Jomiy xotirasiga bag'ishlab yaratilgan «Xamsatul - mutaxayyirin» asari haqida) Til va adabiyot ta'limi. Toshkent, - 2002. №4. B. 34-42; Xolmo'minov M. Naqshbandiya piri: (Shayx Abdurahmon Jomiy haqida). Tafakkur. Toshkent,- 2001. - №4. – B.48-52; Xuseynova A. Inson borlig'ining oliy mazmuni: Abdurahmon Jomiy tavalludining 580 yiligi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. Toshkent, - 1994; Xuseynova A. Hammaga omonlik istab: Abdurahmon Jomiy tavalludiga 580 yil to'ladi. Saodat. Toshkent, - 1994. №3. – B. 23.

Jomiy asarlaridagi umuminsoniy qadriyatlarining bugungi kundagi ahamiyatini aniqlash tadqiqot predmeti xisoblanadi.

Ishning ilmiy yangiligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin yo'qolgan qadriyatlarimizni qayta tiklash jarayoni amalga oshirildi. Abdurahmon Jomiy asarlaridagi umuminsoniy qadriyatlarning yangi yo'nilishdagi falsafiy tahlili BMIning ilmiy yangiligi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. BMI berilgan tahlillardan o'quv jarayoniga, milliy g'oya, tarix, ma'naviyat asoslari, falsafa, o'zbek adabiyot tarixi kabi, fanlarni o'tishda hamda targ'ibot va ma'navmy – ma'rifiy tadbirlarni tashkil yetishda, umuminsoniy qadriyatlarini yoshlar ongiga singdirishning konseptual g'oyalarni, nazariyalarni yaratishda foydalanish mumkin.

Natijalarning ye'lon qilinganligi. BMI bayon etilgan ilmiy - nazariy xulosalar va amaliy takliflar NavDPI "Ijtimoiy fanlar " kafedrasidan nashr yetilgan 2 ilmiy - nazariy konfrensiya ma'ruzalarida o'z aksini topgan.

I BOB. ABDURAHMON JOMIYNING HAYOT YO'LI VA IJODI.

I.1. Abdurahmon Jomiyning hayoti va ijodi

Temuriylar davridagi adabiy hayotning o'ziga xos xususiyatlaridan biri adabiy jarayonning yagonaligi, unda turkiy tilda ijod qiluvchilarning ham, forsiy qalam tebratuvchilarning ham barobar va faol qatnasha olgani edi.

Abdurahmon Jomiy Shohrux hukmdorligi davrida— 1414 yil 7 noyabrda Nishopur yaqinidagi Jom shahrida, ruhoniylar oilasida dunyoga keldi. Jomiyning ota-bobolari asli Dashtdan bo'lib Jomda turib qolishgan. Bobosi Mavlono Muhammad va otasi Nizomiddin Ahmad singari Abdurahmon ham qo'liga qalam olib, she'r yoza boshlagan vaqtdan boshlab o'z tavallud topgan shahri nomini o'ziga adabiy taxallus qilib olgan. Bu borada Muarrix mir Sayid Roqim shunday yozadi: "Tavallud va yashash joyi Jom bo'lgani munosabati bilan ul zot Jomiy taxallus qilganlar. Chunonchi, o'zlari bu ma'nida bayon qoshi bilan ishorat qilganlar.

Mavludam Jom rashhayi qalamam,

Nasha'ayi Jomi Shayxul – islomisit.

Lojaram ash'or daftarida,

Va du ma'ni taxallusam Jomisit.

(Tug'ilgan joyim Jom, qalamim qatralari,

Shayxul – islom jomi nash'asidir .

Lojaram ash'or daftarida,

Ikki ma'nida taxallusim Jomiydir.)"³

(Ba'zi olimlarning fikricha, "Jom" so'zi "idish" ma'nosida tasavvufiy tushunchani ham bildiradi. Sharqdagi adabiy an'anaga ko'ra adabiy taxallus ko'p ma'noli bo'lishi ma'qul ko'rilgan).

U asosiy umrini Hirotida o'tkazdi va shu yerda mashhur shoir va mutafakkir bo'lib

³ Norqulov. N " Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar", Urganch: "Xorazm" , - 1996 y . 89 b.

yetishdi. Bolalik chog'idayoq Jomiy zehning o'tkirligi bilan ajralib turgan. Boshlang'ich ma'lumotni u otasidan olgan. Oilaning Hirotga ko'chishi, otasining bu yerda shayx ul-islom mansabiga tayinlanishi Jomiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hirotida uning o'qishiga Xoja Alouddin Ali Samarqandiy, Shahobiddin Muhammad Jojarmiy kabi mashhur mualliflar o'z hissalarini qo'shdilar. Natijada u arab tili, ilohiyot, tasavvuf, she'r qoidalari, adabiyot tarixi va boshqa fanlarning asoslarini juda erta va o'zlashtira boshladi.

Jomiy turli fanlar bo'yicha o'z tahsilini Samarqandda nihoyasiga yetkazishni ixtiyor qilar ekan, u Ulug'bek madrasasida Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi allomalarning ma'ruzalarini eshitish sharafiga muyassar bo'ldi. U fiqhshunos olim, arab tili, "Qur'on", hadislar bo'yicha mutaxassis Fazlulloh Abullaysdan ham ko'p dars oldi.

Hirotida Jomiy tasavvuf yo'lga kirishni, o'z bilim va faoliyatini shu yo'lga, qolaversa ijodga, ilm-fanga bag'ishlashni afzal ko'radi. Yosh Jomiy Shayx Sa'diddin Koshg'ariy bilan yaqinlashib, unga qo'l beradi va tez orada uning hurmatini qozonadi. Jomiy pirining qiziga uylanadi. Sa'diddin Koshg'ariy tasavvufda Muhammad Naqshband sulukiga mansub edi.

1469 yili Sulton Husayn Boyqaro Hirot taxtiga o'tiradi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, 1476-77 yillar orasida u o'z do'sti va vaziri Alisher Navoiy bilan Jomiy o'ziga pir va ustoz deb taniydi. Bu Jomiy hayoti va faoliyatida katta voqea bo'ldi.

Husayn Boyqaro hukmdorligi davridagi adabiy hayotga to'xtalar ekanmiz, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining xotiranomasida Jomiy yashagan davr va Jomiyga bergan xarakteristikasi juda qisqa bo'lsa ham chuqur mazmunga egadir: " Sulton Husayn mirzoning zamoni ajab zamona edi, ahli nazir va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiri shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg'ul lug'i bor edi, himmati va g'arazi ul erdikim , u ishni kamolg'a yetqurg'ay.

Ul jumladan biri mavlono Abdurahmon Jomiy edikim, zohir va botin ulumida ul zamonda ul miqdor kishi yo'q edi. She'ri hud ma'lumdir. Mulloning janobi andin oliyroqdurkim ta'rifqa ehtiyoji bo'lg'ay. G'oyat xotirg'a kechdikim bu muhaqqar ajzoda tayammum va tabarruk jihatiddin alarning otlari mazkur va shammai sifatlaridin mastur bo'lg'ay".⁴

Jomiy kundalik hayotda oddiy, darvishona yashasa ham, biroq shoh va unga aloqador kishilarning, hatto uni asarlari orqali tanigan boshqa mamlakat podshohlarining unga muruvvati katta edi. Shuning uchun u o'ziga tushgan daromadlar hisobiga bir qancha binoyi hayriyalar, shu jumladan Hirotida ikki madrasa va xonaqoh, tug'ilgan shahari — Jomda bir masjid qurish imkoniga ega bo'lgan. Uning Shamsiddin Muhammad ismli ukasi bo'lib, u katta tabib, olim va sozanda bo'lib yetishgani ma'lum.

Jomiy bir necha marotaba haj qilgan, haj safari davomida Nishopur, Bastom, Domg'on, Qazvin, Hamadon, Karbalo, Bag'dod, Damashq, Halab, Tabriz kabi shaharlarni ko'rgan, bu shaharlarda yuksak izzat-hurmatga sazovor bo'lgan. Uning shaxsiy maktublaridan ma'lum bo'lishicha, u yaqin do'sti Xoja Ahror taklifi bilan Toshkentda ham bo'lgan va ulug' mazoratlarni ziyorat qilgan.

Abdurahmon Jomiy 1492 yili shamollash natijasvda xastalanib, 78 yoshida hayot bilan vidolashgan. Uning dafn marosimshgi Navoiy boshqarib, podshoh Husayn Boyqaro esa mamlakatda bir yil motam e'lon qildi. Unga atab ko'pgina shoirlar, shu jumladan Navoiy ham, qayg'uli marsiyalar bitishdi. Navoiy marsiyasida Jomiy vafotining tarixi "Kashfi asrori iloh" ("Iloxiy sirlar kashfi") degan so'zlardan (hijriy 898, melodiy 1492 yil) chiqarilgan edi.

Jomiydan ulkan va rang-barang adabiy hamda ilmiy meros qolgan. Ba'zi olimlar Jomiy asarlarining umumiy soni 100 ga yaqin deb taxmin qiladilar. Navoiy

⁴ Shamsiyev. P, G'aniyeva. S "Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy", T:"Fan", - 1966 y. 11 b.

"Xamsat ul-mutahayyirin"da uning 38 asarini nomma-nom sanab ko'rsatadi⁵. Jomiy asarlari falsafa, tasavvuf, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, san'at sohalariga hamda nazm va nasrning har xil janrlariga oid. Jomiy o'z asarlarini fors-tojik tilida yozgan, arab tilini ham yaxshi bilgan. Uning ijodiy faoliyati ko'p qirrali bo'lsa ham u Sharq xalqlari madaniyati tarixida ko'proq genial shoir va mutafakkir-olim sifatida tanilgan. Bu jihatdan uning epik va lirik merosi g'oyat diqqatga sazovordir. So'nggi asr adabiyotshunoslari haqli ravishda uni fors-tojik adabiyotining ilk taraqqiyot davridagi (X-XV asrlar) buyuk mutafakkir jodkor deb ataydilar.

Abdurahhmon Jomiy g'oyat sermahsul ijodkor bo'lib, undan bizga adabiyotning turli janrlariga, fan va san'atning rang-barang sohalariga oid boy meros qolgan. Jomiy asarlari o'z davridayoq Xuroson va Movarounnahr doirasidagina emas, boshqa mamlakatlarga ham keng tarqalgan edi. Ba'zan qo'shni mamlakat podshohlari, masalan, Sulton Ya'qub uning asarlarini so'rab maxsus elchilar yuborgan.

Uning asarlari o'z davrida va undan keyin ham ko'p qo'lyozma nusxalarda ko'chirilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Qo'lyozmalar instituti fondlarida Jomiy asarlarining XV — XVI asrlarda ko'chirilgan o'nlab qo'lyozmalarini uchratish mumkin.

Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, ularda shoir islom dini va sharq falsafasining bir qator masalalarini o'z qarashicha talqin etadi, tasavvufning XV-asrdagi yirik arbobi sifatida o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Uning "Lujjatul-asror" ("Sirlar dengizi", 1475), "Ashiat ul-lamoat" ("Yiltillagan nur", 1476) diniy-falsafiy qasidasi Ibn Sinoga bag'ishlangan. Dostonlarida xalq ommasining eng yaxshi orzu-umidlarini kuylagan 7 dostonidan iborat "Haft

⁵ Qarang ; Xayitov Sh. Barkamol inson timsoli: (A. Navoiyning A. Jomiy xotirasiga bag'ishlab yaratilgan «Xamsatul - mutaxayyirin» asari haqida) Til va adabiyot ta'limi. Toshkent, - 2002. №4.

avrang" ("Etti taxt" yoki "Katta ayih", 1480-1487) dagi "Silsilat uz-zahab" ("Oltin zanjir", 1472), "Tuhfat ul-ahror" ("Nuroniylar tuhfası", 1481-82), "Sibhat ul-abror" ("Tahvodorlar tasbehi", 1482-83) dostonlarida yuksak xulq-atvor mezonlarini targ'ib qilgan, kishilarni ma'rifatga, yurtparvarlikka, to'g'rilik, insof va iymonga chaqirgan. "Yusuf va Zulayho" (1483), "Layli va Majnun" (1484), "Solomon va Absol" (1469-80) dostonlari ishqiy mavzuda. "Xiradnomai Iskandariy" dostoni (485) Nizomiyning "Iskandarnoma" sigatahlidan yozilgan. XVIII asr oxiri va XIX asrning boshlarida Muhammad Rizo Ogahiy Jomiyning "Yusuf va Zulayho" sini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Jomiy o'zining mutasavvuflik faoliyatida Bahovuddin Naqshband g'oyalarini shu sulukning ikkinchi bir yirik namoyandasi — Xoja Ahror Valiy bilan yaqin munosabatda bo'lgan holda yanada rivojlantirdi. Rasman u o'zini kundalik hayotda "Malomatiya" tariqatiga mansub deb hisoblasada, asarlarida ulug' Naqshbandga ixlosi cheksiz edi.

Jomiyning tasavvufga bo'lgan e'tiqodi sof va mukammal bo'lib, u Xudoni yorug' nur ko'rinishida tasavvur etar edi. She'riy asarlarida esa u Xudoni go'zal ma'shuqa qiyofasida tasvirlagan. Shu bilan birga uningcha, dunyodagi hamma narsalarni yaratgan. Xudo o'zi ham minglarcha ko'zguda, turli qiyofada va ko'rinishda namoyondir.

“Mavlono Abdurahmon Jomiy Naqshbandiya tariqati mavqeida bo'la turib, vahdat al-vujud ta'limotini naqshbandiylikka olib kirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi va bunga erishish uchun, asosan, quyidagi ikki yo'lni tanladi:

- Ibn al-Arabiy va uning izdoshlari asarlariga sharhlar yozish;
- Ibn al-Arabiy ta'limoti doirasida mustaqil ilmiy-nazariy asarlar yaratish.

Davr tahozosiga ko'ra, o'ta ehtiyotkorlikni talab qiladigan bu ishga Jomiy olimona nazokat va farosat bilan kirishib, 1459-1492 yillar davomida "Nahd an-nusus fi sharhi naqsh al-fusus", "Sharqi ruboiyot", "Sharhi miftoq ul-hayb", "Risolai

suxanoni Xoja Porso", "Sharhi fusus ul-hikam", "Ashi'at ul-lama'ot" va boshqa ko'plab mustaqil ilmiy-nazariy asarlar yozgan. Jomiy "Nahd an-nusus fi sharhi naqsh al-fusus"ni yozib tugatish vaqtidan (1459) taxminan 10 yil oldinroq Ibn al-Arabiy ta'limotini o'rganishga kirishgan, deb taxmin qilinsa, unda u 43 yillik umrini asosan, Ibn al-Arabiy qarashlarini o'rganish, tadqiq va targ'ib etishga bag'ishlagan, degan xulosaga kelish mumkin. Uning 10 ta falsafiy-irfoniy asaridan 2 tasi bevosita Ibn al-Arabiy kitoblariga, qogan 8 tasi esa uning ta'limoti asosida bitilgan sharqlar hisoblanadi.”⁶

Jomiy "Nafohot ul-uns" asarini yozish bilan tasavvuf tarixini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Unda 616 ta mutasavvif hayoti va faoliyati haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ulardan 34 nafari ayollardir. Ushbu asarni Navoiy ma'lum bir to'ldirishlar bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Jomiy faqat mashhur so'fiylar haqida ma'lumot berish bilan cheklanmay, qator shoir va adiblarning hayoti va ijodiga ham to'xtaladi.

“Abdurahmon Jomiy o'zidan oldin o'tgan donishmandlar ta'limotlariga tayangan holda panteistik dunyoqarashni boyitdi, haqiqiy Borliq - Sof Nur va inson dunyosining, inson ruhiy va jismoniy ko'rinishlarining o'zaro munosabati va birligi haqidagi qarashlarni rivojlantirdi. Mutafakkir o'z qobiliyatli kuchini - jismoniy va ruhiy birlik mutanosibligini buzuvchi qusurlarni fosh etishga qaratdi, haqiqiy umuminsoniy qadriyat - ahloqiy-ruhiy kamolotga intilishga chaqirdi. Uning g'oyaviy-nazariy, falsafiy mavqei ma'lum darajada qadimgi Osiyo, Chin, Hindiston hamda harbiy Yevropa ta'sirini, ayniqsa, qadimgi Yunon falsafiy madaniyati - Suhrot, Aflotun va ular izdoshlarining ta'sirini o'zida mujassamlashtirgan”.⁷

⁶ “Nuriddiun Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy” Tavalludining 595 yilligi munosabati bilan Metodik-bibliografik qo'llanma, T: 2009 y

⁷ “Nuriddiun Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy” Tavalludining 595 yilligi munosabati bilan Metodik-bibliografik qo'llanma, T: 2009 y

Jomiyning "Risolayi aruz", "Risolayi muammoyi kabir", "Risolayi muammoyi sag'ir", Risolayi muammoyi mutavvassit", "Risolayi muammoyi manzum", "Sharhi bayti Masnaviy, "Sharhi bayti Xusrav", "Sharhi rubbiyot", "Risolayi qofiya" kabi asarlari Sharq adabiyoti tarixini, uning vazn, qofiya va she'r turlari bilan bog'liq nazariy masalalarini o'rganishda hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Olimning faqat muammo haqidagina 4 ta nazariy qo'llanma yaratgani yoki ulug' salafлари asarlarining murakkab bir baytini izohlash, tasavvufning biron atamasini yoritish uchun maxsus risolalar yozgani uning adabiyot tarixini o'rganishga juda katta ahamiyat berganini, o'zi bu sohalarning haqiqiy donishmandi bo'lganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari Jomiy o'z davrining eng buyuk tilshunosi ham edi. U fors tili grammatikasi bo'yicha maxsus she'riy va nasriy qo'llanma yozgan. Arab tilini esa o'z ona tilidek bilgan edi. U vaqtda arab tili mashur xorazmlik tilshunos olim Ibn Hojibning (1175— 1249) "Al-Qofiya" kitobi bo'yicha o'rganilardi.

Shoirning suyuqli farzandi Ziyovuddin arab tilini shu darslik bo'yicha o'qir ekan, darsni o'zlashtirishda katta qiyinchilik sezadi. Shunda Jomiy uning ahvolini tushunib, 1492- yili, ya'ni umrining oxirlarida "Al-Qofiya"ga maxsus sharh yozadi. Shundan so'ng Ibn Hojibning asari maktab va madrasalarda shu sharh yordamida o'qitiladigan bo'ladi. Jomiy "Sharhi" esa "Sharhi Mullo" nomi bilan shuhrat qozonadi.

Uning aruz bilan bir qatorda musiqa nazariyasi haqida "Risolayi musiqiy" asarini yozishi shu davr madaniy hayotida katta voqea bo'ldi. Jomiy o'z risolasida Abu Nasr Forobiyning ko'p jiddlik "Musiqa haqida katta kitob" asaridagi g'oyalarni yanada rivojlantirdi, musiqani tovushlarning o'zaro ohangdoshlik (ta'lif) va noohangdoshlik (manofarat) nuqtai nazaridan o'rganuvchi, yangi kuy yaratish

uchun ular orasidagi oraliq (ozmina)larni tekshiruvchi fan deb xarakterladi. Musiqa, uning fikricha, insonga eng yuqori ma'naviy oziq beradigan mukammal go'zal tovushlar haqidagi fandır. Bu fan insonlarga xizmat qilishi, ularning hayotini bezashi zarur.

XV asr adabiy hayotida she'riy asarlar bilan bir qatorda nasrni rivojlantirishga ham ahamiyat berilar edi. Shayx Sa'diyning "Guliston" nomli mashhur hikoyalar to'plamini g'oyat sevgan va uni "Jannatdan nishon, xashak-tikoni ham anbagadir jon" deb ta'riflagan⁸ Jomiy 1486—87 yillarda shu asarga javoban "Bahoriston" degan asarini yaratdi.

Lekin Jomiy ijodining eng katta qismini, hech shubhasiz, uning she'riyati tashkil etadi. 1490- yilning boshida u o'z she'rlaridan 3 ta devon tuzgan bo'lib, bu devonlar 1805 g'azal va boshqa she'r turlarini o'z ichiga olgandır. Bu devonlardagi deyarli barcha she'rlar shoirning lirik she'rlar sohasidagi yuksak iste'dodidan darak beradi.

Jomiy lirik she'riyatida real hayot bilan tasavvufiy hayolot shoirning ijodiy fantaziyasi orqali birlashib ketgan.

Shoir she'riyatidagi pand-nasihat ruhidagi she'rlar kishilarni ezgulikka, halol va pok bo'lishga, kamtarlikka, Alloh tomonidan berilgan umrni yaxshi ishlari bilan yashab o'tkazishga da'vat etadi. U o'z ruboiylarining birida yozadi:

Bo'laylik dil xasta ham siynalar chok,

Hayotda doimo pok bo'laylik, pok.

Xokistar bo'laylik ishning boshidan,

Chunki oxiri ham xok bo'lurmiz, xok.

(Sh. Shomuhamedov tarjimasi)

⁸ Abdurahmon Jomiy "Bahoriston" T: "Yangi asr avlodi", - 2007 y

Rang-barang hayotiy mavzularda yaratgan badiiy yuksak va serjilo she'rlar bilan forsiy adabiyotni boyitgan Jomiy, Sa'diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Xoja Hofiz Sheroziy kabi so'z san'atkorlari safidan munosib o'rin oldi.

Navoiy: Jomiyning yigitlik davrida ilm olishga qattiq e'tibor bergan bo'lsada, vaqt nazm oyinidin xoli emas ekandurlar", — deb yozadi "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida. U o'z mulohazalarini davom ettirib, ulug' shoir she'rlarining diniy-tasavvufiy, mazmuni, Allohni tanish haqiqatni shoir majoziy yo'l, uslub bilan, o'zini majbur qilib emas, balki beixtiyor ifodalagani haqida yozadi.

Jomiy she'rlarida ham, boshqa ko'p Sharq mumtoz shoirlardagi kabi hayot, inson go'zalligi va ichki tuyg'u, ehtirolari o'zining tabiiy ifodasini topgan va shoir ularga tasavvufiy ma'no bergan. Jomiy she'riy merosining yirik tadqiqotchisi A. Afsaxzod ham bu to'g'rida: "Jomiydagi so'fiyona kayfiyat uning ijodiy yo'lini eng ibtidosidan boshlangan edi", — deb yozganda to'la haq edi.

Abdurahmon Jomiy ijodining gultoji, shubhasiz, uning "Haft avrang" deb nomlangan dostonlar majmuasidir. Bu dostonlarida Jomiy fors-tojik adabiyotida yaratilgan Nizomiy Ganjaviy (1141—1209) va Amir Xusrav Dehlaviyning (1253—1325) "Xamsa"laridagi eng yaxshi g'oyaviy va adabiy an'analarni davom ettirib, XV asrning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida mavjud muammolarga o'z munosabatini bildirishga harakat qilganki, masnaviyda, oldingi "Xamsa" dostonlari vaznida yaratilgan bu dostonlar Nizomiy va Dehlaviy asarlaridan qolishmasligini ta'kidlab, Alisher Navoiy quyidagi baytlarni yozgan edi:

“G'azal dardu so'ziyai, vah-vah, ne dey! Desa masnaviy, allah-allah, ne dey! Agar nazmdin borcha usdub anta, Bori bir-biridin erur xo'b anga, Vale masnaviy o'zga olam durur, Keyin ta'biga holo musaddam durur. Bo'lub jilvagar tab'i ko'zqusida, Ki sabt ayladi "Xamsa" o'trusida, Erur andin ortuqkuya, o'ksuk emas, El andin der ortuqki, o'ksuk demas!”

Shoir o'z dostonlarida g'oyat yuksak badiiy mahorat namunasi bo'lgan xilma- xil obrazlar galeriyasini yaratdi. Uning Layli va Majnun, Yusuf va Zulahyosi, Salomon va Absolini, Iskandar va Aflotunni jahon adabiyoti xazinasidano'rin olgan nodir obrazlardandir.

Jomiy g'azaliyotidagi lirik qahramon – oshiq sevgiga sodiq, mahbubasiga mehribon , raqiblariga ayovsizdir. Uning sevgilisi – ma'shuqa sernoz , istig'nochi bo'lib, goho iltifotsiz ba'zan bemuruvatdek ko'rinadi. Lekin u ham sevgini qadrllovchi, haqiqiy ishq lazzatlarini orzu qiluvchi vafo va sadoqat kabi go'zal fazilatlar sohibasidir.

Shoir o'zining hajviyalarida voizlar, zohidlar, shayxlarning, amaldor gumashtalarning yaramas xulq- atvorlarini ayovsiz tanqid qiladi. Ularning tamomi faoliyatlari zaminida firibgarlik va g'alamislik, qabohat va razolat, munofiqlik va shuhratparastlik kabi jirkanchliklar yotishini fosh etadi.

Jomiy insonparvarlik, do'stlik, kamtarlik kabi eng yaxshi fazilatlar mujassamlashgan edi. Buni Jomiy va Navoiy munosabatlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Jomiy bilan Navoiy o'rtasidagi do'stlik , umuman, buyuk shaxslar o'rtasida bo'lgan eng ibratli va eng samimiy do'stliklardandir. Bu do'stlik ikki xalq orasidagi asrlar mobaynida mavjud bo'lgan ahillik va hamkorlikning ajoyib ifodasi va timsoli edi. Ko'p qirrali xususiyatga bega bo'lgan bu do'stlik hamma vaqt mamlakat taqdirini hal qiladigan eng masalalarda ham, murakkab ijodiy muammolar ham namoyon bo'ladi va o'zining samaralarini beradi. Ikki jon-u bir tan bo'lgan Jomiy va Navoiy birgalikda ijod etishdi va ijtimoiy faoliyatda bo'lishdi. Ular birgalikda mamlakatda keng qanot yoygan zulum va adolatsizlikni, hokimlarning o'zboshimchalik va razilliklarini qoralashdi, yurtni obod, xalq turmushini yaxshilash haqida o'ylashdi, zamondosh ijodkorlariga har jihatdan faol yordam berishdi, bir – birlariga qimmatli maslahat berishdi.

Jomiy oliyjanob va ilg'or fikirlarni ifoda etuvchi shunday yuksak so'z san'ati namunalarini yaratdiki, ular dunyo madaniyati xazinasini boyitdi va jahonning deyarli barcha madaniy mamlakatlariga yoyildi: yarim ming yil mobaynida O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston, arab mamlakatlari, Eron, Kavkazda va Idil bo'ylarida adabiyotning rivojlanishiga munosib hissa qo'shib keldi. Shoirning nomi va asarlaridan namunalar, uning ta'sir kuchi ko'lami allaqachonlar Yevropaga ham yetib bordi." Masalan, ulug' mutafakkir yozuvchi Gyotening Jomiyini o'zidan yuqori qo'yishi va " fors- tojik klassik poyeziyasining porloq yulduzi" deya madh etishi tasodifiy emas albatta."⁹

Ulug' mutafakkir Mavlono Jomiy shunday yozgan edi:

Ey toj-u muhrga ko'ngil bog'lagan,
Qachongachaga toj-u muhr qoladi?!
Mulk-u boylik bari ketadi bir kun
Na zamon, zamin, na nahr qoladi.
Qo'lingdan kelgancha yaxshilik qilgin,
Jahonda senga shul muhr qoladi.
Shunday yashagilki, sen bo'lsang Sharqda,
Seni duo qilsin odamlar G'arbda.
Aksincha yashasang Rayda,
Qarg'ishlar bo'lmasin Rum degan joyda.
Shamdek bo'l, shamni ko'r, kuyib qalb-u tan,
O'zgalar bazmini qiladi ravshan.

Bu buyuk insonparvar va adolatparvar shoirning samimiy dil so'zlari edi. O'zi ularga amal qildi va o'z asarlari bilan asrlar mobaynida avlodlar orasida yashab, millionlar qalbiga ziyo baxsh etib keldi.

⁹ Shamsiyev. P, G'aniyeva. S "Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy", T:"Fan", - 1966 y, 16 b.

I.2. “ Bahoriston” asaridagi umuminsoniy qadriyatlarning aks etilishi.

Sharq adabiyotining mumtoz shoiri buyuk so'fiy shayx Abdurahmon Jomiy Navoiy hazratlarining do'sti, zamondoshi maslakdoshi, shu qatorda o'zbek va tojik xalqlarining ma'naviy ustozidir.

XV asr adabiy hayotida she'riy asarlar bilan bir qatorda nasrni rivojlantirishga ham ahamiyat berilar edi. Shayx Sa'diyning "Guliston" nomli mashhur hikoyalar to'plamini Jomiy g'oyat sevgan va uni "jannatdan nishon, xashak-tikoni ham an bargadir jon" deb ta'riflagan Jomiy 1486—87 yillarda shu asarga javoban "Bahoriston" degan asarini yaratdi.

Uning “ Bahoriston” asari zamonlar osha yashab kelayotgan abadiy ibratlar, hikmatlarni o'z ichiga jamlab, iymonga, e'tiqodga, poklikka, adolatga, muhabbatga chorlayotgani, hikoyatlarini hanuz mutolaa qiluvchiga ulkan saodatli ruhiyat bag'ishlayotgani bilan bebahodir.

Jomiy o'z asari haqida shunday deb yozadi:

“Sayr ayla bu “Bahoriston”da,
Ko'rinar unda shan gulistonda.
Latofatdan har gulistonda,
Gullar yashnab, anqir rayhonlar.

Bu “Bahoriston” sakkiz ravza - bog'dan tashkil topgan bo'lib, bu jannat ravzalarining har birida o'zgacha gullar jilvasi va o'zgacha rayhonlar atri. Buning gullari kuz shamolidan xazon bo'lmaydi va rahyonlari qish sovug'idan so'lmaydi”¹⁰.

¹⁰ Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” T: “Yangi asr avlodi” , - 2007 y , 3b

O'zi yaratgan asarini jannat bog'lariga qiyoslab , undagi sakkiz ravza tarkibiga kiruvchi hikoyatlarni gulga o'xshatadi. Bog'da sayr etgan har qanday inson unga xushbo'y ifor va tarovat baxsh etib turgan gullarni ko'rganda ko'nglida ajib bir hislar uyg'onadi albatta, shu sababdan shoir o'z o'gitlarini gulga qiyos qilgan . Odatda gullar nozik va umri qisqa , mavsumiy bo'ladi. Jomiy bu jarayonga ham o'zgacha yondoshgan. U yaratgan gullar xazon bo'lmasligini , har xil dovul – u bo'ronlarni yengib, so'limay umriboqiy bo'lishini aytgan. Albatta bu borada buyuk alloma haq edi. Mana necha asr o'tsada uning bo'gidagi gulari so'lmadi, aksincha xushbo'y ifor taratib, umuminsoniy qadriyatga aylanib butun dunyoga o'z jilvasi va atrini keng yoydi.

Jomiy “Bahoriston” asarining muqaddimasida kitobni mutolaa qilayotgan kitobxonlarga birgina iltimosini aytgan : “bu bog'ni sayr etib , tomosha qilar ekanlar, bu chamanni o'stirguncha jigari qon, dili biyron bo'lgan bog'bonni duo bilan yod etib, maqtoa bilan shod aylasunlar...

Baxtlilar ichra har kim,
Bu boqqa etsa gar jim.
Yo tersa mevasidan,
Ko'rgazsa haqshunoslik.
Karamga etsa moslik,
Etsa meni duolar”¹¹

Yuqorida aytganimizdek asarini bog'ga o'xshatadi, tabiiyki o'zini bog'bonga qiyoslaydi. Bog'bon bog'ni obod qilish uchun tinim bilmay mehnat qiladi. Jomiy ham asariga qalb qo'rini , dilini baxshida etgan, shunday yuksak mehnati uchun arziyas bir iltimos ya'ni uning nomiga duo qilishlarini so'ragan. Zero qadimdan meros qolgan dono xalqimizning shunday naqli bor: “Oltin olma – duo ol”.

¹¹ Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” T: “Yangi asr avlodi” , - 2007 y, 4b.

“Bahoriston” asari muqaddima, sakkiz ravzadan ya’ni bo’limdan iborat bo’lib har bir ravza alohida bir mavzuga bag’ishlangan.

Birinchi ravza “Darveshlar haqida” deb nomlanib, unda so’fiylarning aytgan so’zlari qilgan ishlar haqida bayon etilgan.

Tasavvuf (arabcha suvf – so’fiylik) – islomda insonning ruhiy dunyosi to’g’risidagi, uni ruhiy – axloqiy jihatdan komillik sari yetaklovchi ta’limotdir. Hayotning barcha sohalar diniy e’tiqod bilan bog’liq bo’lgan o’rta asrlarda tasavvufning roli katta bo’lgan.¹²

Hikoyat

Shayx Abu Said ibni Abul Xayrdan:

- So’fiylik nimadan iborat? – deb so’raganlarida u u shunday javob beribdi:
- Boshingda borini chiqarib tashla, qo’lingda borini berib yubor, senga nima qilsalar chida.

So’fiylikni istasang o’zingdan bo’lg’il xolos,
Chiqib ketsun dilingdan butun havo – u havas.
Qo’lingda har ne bo’lsa, boshqalar qo’liga ber,
Yuz balog’a bardosh ber, barchaga bir quloq os.¹³

Bu yerda so’fiylikka erishish bayon etilgan. So’fiy inson o’zini emas o’zgalarni o’ylab yashashi, kibr – u havasga berilmasligi, hayot qiyinchiliklarini mardonavor yengib o’tishi lozim.

Mardonalik o’z birodarlari kamchiligini kechirishda, na ketidan kechirim so’rash lozim bo’lmaydigan ish qilishda hisoblanadi. Mard odamgina unga yomonlik

¹² Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug’ati, T: “G’afur G’ulom nomidagi nashriyoti – matbaa ijodiy uyi”, - 2009y.

¹³ Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” T: “Yangi asr avlodi” , - 2007 y, 7b.

qilgan insonlarni kechirib, ularni to'g'ri yo'lga boshlaydi, o'zi esa uzrli ish qilmaydi. Zero, mard odamga kechirim so'rash yarashmaydi, bu uning obro'yini tushurib el – yurt oldida boshi egiladi.

Ikkinchi ravza “Donolar hikmati” deb nomlanib, bu ravzada turli xildagi donolar fikrlari va mulohazalari berilgan.

Hikoyat

Hakimlardan biri demishki: “Hikmatdan qirq daftar yozdim ammo undan naf ko'rmadim. Undan qirq kalimasin ixtiyor qildim, ammo na manfaatu na foydasin bilmadim. Undan to'rt so'z tanlab oldim va qidirgan narsamni topib ko'ngilga soldim:

Avvali shuki, ayollarga ham erkaklar kabi e'timod qo'yma... Ikkinchisi shuki, boylikka mag'rur bo'lma, boylik qanchalik farovon bo'lmasin, uni zamon oxiri poymol etadi.

Boylikdan kerilmoq – aqldan nari,
Chunki u o'tkinchi bulut singari.
O'tkinchi bulutda janhar bo'lsa – da,
Subutiga yo'qdir aqling bavari.

Uchunchisi ulkim, o'z yashirin siringni hech bir do'stingga ham aytma, chunki do'stlikka halal etib, dushmanlikka aylangani hayotda ko'p uchraydi.

To'rtinchi ulkim, faqat foydasi tegadigan ilmni olish kerak, foydasiz fazilatdan qochmoq nafaqat zarur narsaga quloq ochmoq lozim.

Eng zarur bilimni qunt bilan o'rgan,
Zarur bo'lmaganin axtarib yurma.
Zarurini hosil qilgandan keyin,

Unga amal qilmay umr o'tqurma”¹⁴.

Inson umri davomida duch keladigan shu to'rt o'git hayotining qay tariqa o'tishini belgilaydi. Bu o'gitlarga amal qilib yashagan shaxs kelajakda komil inson bo'lib yetishadi.

Yoshlarni har tomonlama yetuk barkamol, komil inson qilib tarbiyalash bugungi kunda davlatimizning eng yuksak va ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Uchinchi ravza shohlik va adolat bobi bo'lib, unda podsholarning donoligi, haqqoniyligi va adolatpeshaligi haqida bayon etilgan.

Bu bobda ko'proq arab xalifalik davrida hukumronlik qilgan dono amirlarning davlatni boshqarganlari va ularning odilona siyosat yuritganlari haqida hikoyatlar bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Misol uchun:

Hikoyat¹⁵

Mo'minlar amiri Umar xalifalik vaqtida Madinai munavarrada bir devorni shuvar edi. Bir yahudiy kelib: “Basra hokimi mendan yuz ming dinorlik mato oldi, ammo haqini bermayapti” deb shikoyat qildi.

– Qog'ozing bormi? - dedi unga amir.

– Yo'q, - dedi yahudiy.

Yerdan bir spool parchasini olib unga: “Sendan shikoyat qiluvchilar hisobsiz, ammo mamnun bo'lganlar topilmaydi. Yo shikoyatdan oppoq bo'l , yo hokimiyatdan yiroq” , deb yozdi va oxiriga: “Yozuvchi Umar ibni Hattob” , deb qo'shib qo'ydi. Unga muhr ham bosmadi, imzo ham chekmadi, ammo unda shunday adolat savlati va siyosat salobati bor edikim, yahudiy uni Basra hokimiga

¹⁴ Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” T: “Yangi asr avlodi” , - 2007 y, 13b.

¹⁵ Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” T: “Yangi asr avlodi” , - 2007 y, 30-31b.

berganda, u otdan tushib yer o'pdi va ot ustida o'tirgan yahudiyga qarzini batamom to'ladi.

Davlat boshlig'i adolatli siyosatchi bo'lishi lozim. Har qanday moammolarni donolik bilan oqilona siyosat yuritib hal qilishi lozim. Agarda davlat boshlig'i mamlakatni zo'ravonlik asosida boshqarsa, unda u mamlakat inqirozga yuz tutadi.

To'rtinchi ravza saxovat va karam bobida sahovat va saxovatpeshalarning qilgan ishlari va aytgan o'gitlari yozilgan.

Saxovat - bu bir insonga chin ko'ngildan yordam berish. Ya'ni biror narsaga qarab yoki evaziga biror narsa talab qilish maqsadida ko'mak berishni sahovat deb bo'lmaydi. Hattoki, minnatdorchilik yuzasidan berilgan biror narsani olishlik ham saxovatpesha deb bo'lmaydi. Zero saxovat evaziga biror narsa talab qilmaydigan beminnat yordam ko'rsatish demakdir.

Saxiy dema sahovatiga,
Biror talab qo'ysa gar odam.
Saxiylikmas, bu savdogarlik,
Bunda yo'qdir sharaf va karam.
Saxovatdan kimning maqsadi –
Agar bo'lsa shuhrat, ovoza.
Ahli karam shahrida unga
Har doimo bekdir darvoza.¹⁶

Saxovatpesha Hotamda: - “Sendan ham saxiyroq insonni ko'rganmisan” , - deb so'rashganda. – Ko'rganman deb javob beribdi va u bir kuni bir yetimchaning uyiga mehmon bo'lib boribdi. Yetimchaning 15 qo'yi bo'lib, mehmonga bir qo'yni so'yib, pishiribdi. Hotamga qo'y go'shining bir joyi yoqib qolib, lazzeatli ekan debdi. Shunda u yigit qolgan qo'ylarini so'yib unga ma'qul tushgan joyini pishirib

¹⁶ Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” T: “Yangi asr avlodi” , - 2007 y, 34b.

Hotamning oldiga qo'yibdi. Hotamning bu ishlardan xabari yo'q ekan. Bu ishlardan xabar topgan Hotam nimaga bunday qilganini so'rabdi: “- Xudoga shukurkim, mening bir narsam senga yoqib qolibdi, agar xasislik qilganimda, arab shaniga yomon ish bo'lur edi ”, - debdi.

Yuqorida aytilganidek saxovat singari saxiylik ham o'zida bor bo'lgan narsalarni biror narsa talab qilmay o'zga bir insonga taqdim qilish hisoblanadi.

Bu borada Jomiy quyidagicha fikrlaydi:

Agarda uyidan chiqarib bersa,
Bor – yo'q yarimta noni gado.
Yarim xazinasin bergan podshohdan,
Sahiylik bobida shu gado a'lo.¹⁷

Beshinchi ravza “Do'stlik va muhabbat” bobi bo'lib , bu bobda haqiqiy do'stlik , sadoqat, vafodorlik kabi tuyg'ular haqida so'z borgan. Jomiy real hayot va haqiqiy muhabbatni jo'shqin misralarda tarannum etgan.

Hikoyat¹⁸

Ikki donishmand orasida ishq– muhabbat haqida so'z ketadi. Biri dedi:

- Ishqning hosiylati hamisha mehnatu balodir va hamma vaqt oshiqning tortgani hasrat – u jafodir.
- Jim bo'li! – dedi unga ikkinchi donishmand. – Sen hech qachon jangdan keying sulhni ko'rmagansan, firoq ketidan visol kayfini surmagansan , sof dil oshiqlardan latifroq kishi olamda topilmas va bu andishadan uzoq bo'lsa , undan iflosroq kishi bo'lmas.

¹⁷ Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” T: “Yangi asr avlodi” , - 2007 y, 40b.

¹⁸ Qarang Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” T: “Yangi asr avlodi” , - 2007 y, 42b.

Do'stlik haqida esa quyidagi misralarni yozib xursandchilikda emas, boshingga g'am tushganda yoningda turgan inson haqiqiy do'st hisoblanishini ta'kidlaydi:

Dil agar nogohon g'amga uchrasa,
G'amxo'r do'sting bo'lsa u ham emasdir.
Kulfat kuni sodiq do'stlaring kerak,
Baxtli kunda do'stlar hech kam emasdir¹⁹.

Oltinchi ravza "Mutoibot" deb nomlanib, bu ravzada turli xildagi hajviyalar berilgan. Hajviyalarda zolim podshohlar, nodon kimsalar va mayparastlarning qilib yurgan ishlaridan kuladi.

Bir mast uyidan chiqib, ko'chaning o'rtasida hammayoqqa qayt qilib, uchib qoldi. Bir it kelib, lab – dahanini yalay boshladi. Birov meni tozallab qo'yapti shekilli, deb o'ylagan mast esa, pichirlab uni duo qilar edi.

- Xudo sening farzandlaringni ham senga shunday mehribon qilsin.

Birdan it oyog'ini ko'tarib, uning basharasiga siyib yuborgan edi, u: - Barakalla, ey og'a, yuzimni yuvishga issiq suv ham keltiribsan, - dedi.

Sharob ichish oqibatida inson o'zligini yo'qotadi. Hatto, yuqorida keltirilgan rivoyatdagi mast singari itni odam deb o'ylaydi. Alkagol, spirtli ichimliklarni haddan tashqari istemol qilish inson organizmida turli xildagi kasalliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli alkagol mahsulotlarni istemol qilishdan oldin u keltirib chiqaradigan oqibatlarni o'ylash lozim.

Mutoyiba

Bir bo'zchi bir olimga pulini omonat qo'ygan edi. Bir necha kumdan so'ng o'ziga kerak bo'lib qoldi va olim uyiga keldi. Olim eshigi tagidagi supada o'tirib, mudarrislik qilar, oldida shogirdlari saf tortib o'tirishar edi.

¹⁹ Qarang Abdurahmon Jomiy "Bahoriston" T: "Yangi asr avlodi", - 2007 y, 51b.

- Ey ustod, kechagi omonatni bersang, kerak bo'lib qoladi, - dedi bo'zchi olimga.
- Birpas o'tir, darsim tamom bo'lsin. – Bo'zchi kutib o'tirdi, ammo dars cho'zilib ketdi, domlaning dars vaqtida boshini chayqab qo'yish odati bor edi. Shoshib turgan kosib buni ko'rib, dars berish bosh qimirlatishdan iborat ekan, deb o'ylaydi – da , ustodga:
- Sen kirib omonatni olib chiq, sening o'rningga men bosh irg'ib turay, ishimzarur, - dedi.

Donishmand buni eshitib kulib dedi:

Bilimdan lof urar shahar faqihi,
Har ilmni bilar oshkoru nihon.
Undan ne so'rasang qo'l bilan imo,
Yoki bosh irg'ishlab qiladi oson.

"Bahoriston"ning yettinchi – ravzasi “She'r va shoirlik” bo'limi bolib, u adabiy tazkira xarakteriga ega bo'lib, unda Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Nosir Xisrav, Nizomiy, Shayx Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Xusrav Dehlaviy kabi mashhur fors-tojik shoir va adiblari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar hamda ularning hayotidan olib yozilgan hikoyalar bor.

Qadimgi donishmandlar hukmiga qaraganida she'r shunday kalimadirkim, u muqaddimoti hayol, ya'ni tinglovchi hayolini qo'zg'atuvchi va ma'nosi unga iqbol berguvchidir.

Haqiqatdan ham she'r nechog'liq go'zal, nechog'liq fazilatga boy va nechog'liq yuksak. She'rdan buyukroq fazilat bormikin? She'rdan sehrliroq sehr bormikan?!

Bormi husnga she'rdan ko'ra boy,
Xatidan chetga chiqmaydi chiroy.
Agar kirishib ketgan esa dil,

Tasalli va sabr bermoqlik mushkul.²⁰

Sakkizinchi ravza” Masallar” bo’limi bo’lib, bu bo’limda masal janriga oid turli xildagi ibratli rivoyatlar berilgan.

Hikoyat

Bir tulki bir bo’riga hamsuhbatlik damin urdi va u tamom munofaqat yo’liga yurdi. Bir kuni bir boqqa bordilar, bog’ning eshigi mahkam band va devoir baland edi.

Devor atrofida chopishdi, oxiri, bir teshik topishdi. U tulkiga kengu bo’riga tor edi. Tulki osonlikcha kirib ketdi – yu, bo’ri siqilib, qiynalib o’tdi.

Xilma – xil uzumlar, mevalar topishdi: baridan totishdi, tulki tiyrakroq bo’ldi, chiqib ketish andishasini qildi, axmoq bo’ri esa, qorniga siqquncha yedi. Birdan bog’bon bilib qoldi, qo’liga tayoq oldi va bular taraf yo’l soldi. Xipcha bel tulki lip etib teshikdan o’tdi – ketdi. Bog’bon esa qorni shishib, teshikka qisilib qolgan bo’ri boshiga yetdi. Uni chunonam savaladiki, bechoraning po’sti shilinib, juni yulinib, toru tang teshikdan arang chiqib ketdi.

Qissadan hissa shuki, har bir narsani me’yorida bo’lishi kerak , agarda me’yoridan o’tib ketsa og’ir oqibatlarga olib keladi.

²⁰ Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” T: “Yangi asr avlodi” , - 2007 y, 66b.

II. ABDURAHMON JOMIYNING FALSAFIY QARASHLARIDA

UMUMINSONIY QADRIYATLAR.

II.1.Qadriyatlar tushunchasining mazmun mohiyati.

Qadriyat – inson va jamiyat manaviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar , holatlar, sifatlar talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha .

Qadrlash tushunchasi millatning tarixi, yashash tarzi birligi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, millat, ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Agar ilmiy fan nuqtai nazardan “qadriyat” tushunchasining mohiyatini yoritadigan bo'lsak “qadriyat – inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab, tartiblar va boshqalarning qadrini, ijtimoiy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy kategoriyadir”²¹. Bu atama ilmiy bilimlar sohasiga o'tgan asrning ikkinchi yarmida nemis aksiologi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan²² bo'lib, g'arbda qadriyatlarni “Aksiologiya” (aksio – qadriyat, logos - fan) fani o'rganadi. Bu fan g'arbda bir muncha rivojlangan bo'lib, inson qadri va haq-huquqlariga doir ko'pgina qarashlarni yoritib beradi. Sharqda esa qadriyatshunoslik asosi uzoq ming yillik boy tarixga ega bo'lsada, fan sifatida ilmiy sohalar qatorida kam uchraydi.

Mustakillik tufayli haqiqiy qadriyatlarimizni qadrlashni bilib olmoqdamiz. U xam bo'lsa tadrijiylik, andishalilik, qiyinchilik va bo'hron paytida sabr-toqat, maromlilik va vazminlik, mulozamatda sertakalluflik, keksalarga munosabatda hurmat-izzat, ijtimoiy-siyosiy hayotda bosiqlik va sipolik, va hokazolar.

²¹ Фалсафа асослари. Ўз ФА Фалсафа ва ҳуқуқ институти Ўзбекистон файласуфлари ҳамжамияти. –Т.: Ўзбекистон. 2005. 322-б.

²² Миллий г'оя: тарғ'ибот технологиялари ва атамалар луг'ати. –Т.: Академия. 2007. 330-б.

Galdagi vazifamiz esa jamiyatimiz taraqqiyoti O'zbekistonning kelajagi, milliylikning rivojlanishi uchun qadriyatlarimizni qay darajada qadrlashimizga bog'lik. Biz shu tamoyilga xizmat kilmog'imiz lozim. Mustakillik O'zbekiston shu yo'lda bormoqda.

Bu boradagi maqsadlarni amalga oshirish borasida avvalambor “qadrlash” tushunchasining mohiyatini anglab yetish lozim. Qadrlash tushunchasi millatning tarixi, yashash tarzi birligi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, millat, ong, til, ma'naviyat xamda madaniyat bilan uzviy bog'lik holda namoyon buladi. “Qadrlash” tushunchasi mohiyatini o'rganishimizdan oldin “qadr” so'ziga izoh berish o'rnlidir.

“Qadr – muayyan qadriyatlarning, ya'ni biron-narsa , voqea, hodisa yoki biror idealning inson va jamiyat uchun qadri va ijtimoiy ahamiyatini anglatadigan tushuncha”²³. Qadriyatlar muammosiga bag'ishlangan ilmiy-falsafiy manbalarning ko'pchiligida qadriyatni “ baho” tushunchasi bilan qiyoslash, ularga bir xil darajada va ko'lamdagi tushunchalar sifadida qarash hollari uchraydi. Bu ikki tushuncha qiyoslanayotganda qadr tushunchasi e'tiborga olinmaydi. Bunga sobiq ittifoq davridagi qadriyatga ma'naviyat nuqtai nazaridan emas, balki iqtisodiy tushuncha sifatida “ qiymat” tarzida ishlatilganiga sabab bo'lishi ham mumkin. Rus tilida qadr iborasi ishlatilmaydi. Qadr tushunchasi o'zbek tilida serqirra ma'no va mazmunga ega, u tilimizdagi ba'zi ibora va so'zlarda o'ziga xos sharqona falsafiy mazmun borligidan dalolat beradi. Ana shu sababdan ham o'zbek tilida qadriyatning mazmunini bilib olish va uning ahamiyatini anglash, avvalo, Qadr “ baho” tushunchalarining ma'nosini bilish orqali boradi. Insonning insonga ibratini, tarbiyadagi ta'sirini uni o'zi baholay olmaydi, balki boshqa inson baholaydi, qadrga baho beradi. Bahoda teshkari munosabatda, boshqa bir kishining qadriyat sifatida qaralayotgan ob'ekt , narsa, hodisa, idealga nisbatan munosabati , uni

²³ Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati, T: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyoti – matbaa ijodiy uyi”, - 2009y. 707 b.

anglashning biror bir darajasi o'z ifodasini topadi. Bu jarayonda sub'ekt qadriyatga munosabatni baho tarzda ifodalaydi. Qadriyatning mazmuni va ahamiyati bahoda to'la-to'kis aks etmasligi, turlicha ifonalanishi mumkin. Qadriyatning haqiqiy qadrinrayi, mazmuni va ahamiyatini bahosiga qarab aniqlash qiyin bo'ladigan hollar ham uchraydi. Masalan, ba'zi narsalar (san'at asarlari obidalar, yodgorliklar va boshqalar) qadrning nihoyatda balandligi ularda "bebaho" degan sifat berilishicha sabab bo'ladi. Aslida qadriyatning qadrini bilish, uning ahamiyatini anglab olish va baholash bir-biri bilan uzviy bog'liq jihatlarni tashkil qiladi. Qadriyatning ahamiyati anglab olinmasa, qadri to'g'ri tushunilsa, unga to'g'ri baho berib bo'lmaydi. Aynan shu ma'noda qadriyatni baholash unga bo'lgan insoniy munosabatni ham ifodalaydi, bu esa, o'z navbatida, kishilarning talab- ehtiyojlari va maqsadlari bilan bog'liqdir. Inson nimanidir baholayotganida va qadrini anglayotganida o'z ma'naviyati, bilimi, ehtiyojlari, talablari, maqsadlaridan kelib chiqadi, o'z manfaatlarini ham unutmaydi. Bu ehtiyoj, talab, maqsadlar va biror foyda olishni ko'zlash ham ma'naviy xususiyatga ega bo'lganidan, muayyan kishilarning u yoki bu qadriyat, uning qadri va ahamiyati haqidagi fikri (bahosi) muayyan darajada nisbiydir. Kimningdir yoki nimaningdir qadrini baholashda ishtirok etayotgan turli maqsad va ehtiyojga ega bo'lgan kishilar soni ortgani sari, sari haqiqiy bahosini aniqlash qiyinlashib boraveradi. Xullas, qadr tilimizda xilma-xil ma'noni anglatadi va ma'naviy qiyofamizni ko'rsatadigan sermazmun tushunchalardan biri hisoblanadi.

Qadrlash – sub'ekt uchun ahamiyatli jarayonlar uchun ishlatiladi. Shuning uchun qadrlash kishilarning ehtiyojlari va maqsadlari bilan bog'liq. Inson nimanidir qadrlayotganida o'z botini (ichki dunyosi) va zohiri (tashqi effekt)dan kelib chiqib baholaydi. O'z ehtiyoji maqsadi, manfaatini ko'zlab fikrlaydi. Shuning uchun ham qadrlash tushunchasiga munosabatlar turlicha bo'ladi va bular nisbiy hisoblanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan qadrlashning ob'ektiv, sub'ektiv jihatlari mavjud:

Qadrlash ob'ekti – inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab, tartiblar. Bir muhitda yashagan insonlarning qadrlash ob'ekti turlicha bo'ladi. Qadrlash ob'ektlaridan biri mavjud vaziyatga ko'ra oldingi pog'onada turishi mumkin. (OAVda madaniy boyliklar, yodgorliklar, ma'naviy meros, an'ana, urf-odatlariga nisbatan qadrlash ob'ekti sifatida qarab, asrab-avaylash odat tusiga kirgan)

Qadrlash sub'ekti – barkamol shaxsning ideal sifatleri. (Bu jarayonda insoniylik prinsipiga asoslanadi)

«Har bir okil insonning va jamiyatimizning mukaddas vazifasi, aytish mumkinki, hayotning ma'nosi - kobil farzandlir ustirish, ularni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan mukammal kilib tarbiyalash, kamolini kurish, ota-onasiga, Vataniga sadokatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir»²⁴.

Insonning ma'naviy, axlokiy kamoloti nixoyatda keng, kup kirrali, mazmun-mohiyati jihatdan chukur tushunchadir. Jamiyatimizda ruy berayotgan ma'naviy yuksalish, insonning axlokiy, g'oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg'onish jarayonlari bilan uzviy bog'likdir.

Ma'naviy barkamol inson uziga munosib kurmagan biron-bir nojuya ishni uzgalarga ham ravo kurmaydi, hech bir kishiga aziyat yetkazmaydi. Vatanga va millatga sodiklik ham madaniyatlilik, ma'naviy barkamollik, axlokiy poklikning eng yuksak namunasi hisoblanadi.

Odamlar garchand bitta jamiyatda, bir davrda va o'xshash sharoitdalarda yashayotganliklariga qaramasdan, u yoki bu narsaning qadri turlicha anglab olinadi, tushuniladi va talqin qilinadi. Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi tasavvuri, qarashlari o'zgaradi, bu esa taraqqiyot

²⁴ Nazarov Q. Qadriyatlar tizimi: Barqarorlik va o'zgaruvchan diolektikasi(aksiologiyaning ijtimoiy falsafiy muammolari): Ffd dis: 09.01.11 II O'zR.FA. Falsafa va huquq institute.

jarayonida odamlarning turmush sharoitlari, hayoti va ma'naviy qiyofasidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Turli xil jihatlar har qanday qadriyatning qarama-qarshi tomonlarini tashkil qiladi. Ijobiyligi va salbiyligi, baholanishi va ahamiyatiga ko'ra bir- biriga mutlaqo zid ko'rinadigan "yaxshilik" va "yomonlik", "haqiqat" va "haqsizlik" , "baxt- saodat" va "g'am- kulfat", "tadrijiylik" va "inqilobiylik", "taraqqiyot" va "tanazzul" , "borliq" va "yo'qlik" kabi tushunchalar hayotning bir- biri bilan qarama-qarshi bog'langan jihatlarini ifodalaydi. Qadriyatlar jamiyat rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi , tarixiy zaruratga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog'onaga chiqadi, boshqalari xiralashgandek tuyuladi. Natijada ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot qonunuyatlarga mos ravishda, oldiga chiqib olgan qadriyatni barqarorlashtirishga nisbatan intilish kuchayadi. Masalan, yurtni yov bosganga – ozodlik, imperiya hukumronligi nihoyasida – istiqloq, urush davrida – tinchlik, tutqunlikda- erkinlik, xastalik va bemorlik paytlarida- sihat-salomatlikning qadri ortadi, ularga intilish kuchayadi.

Ma'lumki, qadrlash tushunchasi muayyan sharoitlarda shakllanadi. Shu sababli ular mahalliy, milliy, mintakaviy shakllar va umuminsoniy mazmunda mavjud buladi.

Umuminsoniy qadriyatlar jahondagi barcha odamlar, xalqlar va davlatlar uchun umumiy qadrlash mezonini hisoblangan, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar tizimini ifoda etadigan tushuncha hisoblanadi.

Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko'lamli va serqirra tushunchadir. U ozodlik, erkinlik, tinchlik, baxt – saodat kabi umumijtimoiy ma'no – mazmun kasb etadigan tushunchalardangina iborat emas. Uni faqat madaniy boyliklar sifatida tushunishni ham maqsadga muvofiq, deb bo'lmadi. Shu bilan birga, muayyan milliy, etnik va xususiy qadriyat tizimlari ham umuminsoniy qadriyatning o'rnini bosa olmaydi.

Umuminsoniyat qadriyat tizimi va uning namoyon bo'lish shakillarini namoyon bo'lish shakillarini tahlil qilish, aslida, tarkibiy qismlari bir-biri bilan dealiktek tarzda bog'langan umumiy tizimni uning asosiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarni tatqiq qilishdir. Umuminsoniyat qadriyat jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida yashayotgan barcha kishilar uchun umumiy bo'lgan tizimni hosil qiladi, boshqa tamoyillar bilan uzluksiz aloqada, zaruriy aloqada, zaruriy bog'lanishda namoyon bo'ladi. Umuminsoniyat qadriyatning namoyon bo'lish shakillari nisbiy xususiyatga ega, ammo bu nisbiylik doimiy ham ko'zda tashlanavermaydi. Tarixiy rivojlanish jarayonida (obektiv tarzda), jamiyat va kishilarning talab ehtiyojlari natijasida (sub'ektiv tarzda) Umuminsoniyat qadriyat shakillaridan goh boshqasi umumiy tizimining markaziga, hayotning oldingi pog'onasiga chiqib oladi, masalan, yurt mustaqilligiga xavf tug'ilganida – vatanparvarlik; milliy o'zlikni anglash va milliy uyg'onish davrida – tarixiy va madaniy merosni o'rganishga intilish kuchayib boradi. Shu tariqa ijtimoiy jarayonlar rivojida umuminsoniyat qadriyatning ma'lum bir shaklining dolzarbligi, boshqasini zarurligini bir qadar xiralashtirganday, ularning ayrimlari ideal holatga yaqinlashganidek, boshqalari esa ulardan uzoqlashgandek tuyuladi.”

Odamlar o'ylari va atrof-dagilarning amaliy faoliyatini, biror sohadagi xatti-harakatlarini umuminsoniyat qadriyat mezonini bialn solishtirib, mulohaza yuritadi, xolosa chiqaradi, baho beradi. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida umuminsoniyat qadriyatning ustuvorligi talablari har bir tarixiy birlikning tarixiy rivojlanish mahsuli ekani, barcha insonlarning manfaatlari, haq – huquqlari uning yashash va umr kechirish huquqining tabiiyligi va muqaddasligini to'liq e'tirof qilinishi anglatadi. Ana shu sababga ko'ra, istiqlol yillarida mamlakatimizda umuminsoniyat qadriyatning ustuvorligi tamoyiliga nihoyatda katta e'tibor berilmoqda. Bu qadriyatlar jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va tub o'zgarishlarning asosiy mezoniga aylangani bejiz emas.

Hozirgi zamon jahon stivilizastiyasi taraqqiyot muammolari va kelajagi umuminsoniy ma'naviy kadriyatlarning ahamiyatini nihoyat darajada oshirdi va ularni jahon stivilizastiyasining hayotiy zaruriyatiga aylantirdi. Chunki bu muammolarni fakatgina yer yuzidagi barcha xalklar va davlatlar birgalikda hamjihatlik bilangina hal kilishlari mumkin.

Umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar murakkab kismga ega bulib, inson ma'naviy hayotining barcha sohalarida namoyon buladi. Umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar - bu barcha xalklar urf-odat va an'analaridagi, din va his-tuyg'ulardagi, o'zaro munosabatlar, ularning axloqiy va estetik karashlardagi, xullas, insonlar ma'naviy hayotidagi umumiy tomonlardan iboratdir. Umuminsoniylik, ayniksa, ilm-fan sohasida namoyon buladi. U o'z mazmuni bilan umuminsoniy xarakterga egadir. Lekin ilm-fan ayrim xalklarning zabardast farzandlari tomonidan rivojlantiriladi va buyuk kashfiyotlar kilinadi, bu jihatdan hamda ularning milliy tillarda ifodalanishi nuktai nazardan olganda, ularning milliyligidan dalolat beradi.

Ammo ular milliylik doirasidan chikib, boshka xalklarning ma'naviy boyligiga aylangach, ular umuminsoniy ma'naviy kadriyatlar darajasigacha kutariladi hamda barcha xalklarga bir xilda xizmat kila boshlaydi. Shu tarzda ilm-fan uzluksiz ravishda rivojlanib, uzining mazmunan umuminsoniyligini namoyon qilaveradi. yer yuzidagi xalklarning iktisodiy va siyosiy jihatdan yakinlashuv jarayoni davomida bu xalklar ma'naviy hayoti turli xalklarda milliy shaklda namoyon bulgan umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar bilan boyib boraveradi. Bu hol esa, turli xalklar urtasidagi kardoshlik hissiyotini kuchaytiraveradi va shu asosda jahon xalklari urtasidagi dustlik va barkarorlik mustahkamlanaveradi.

“O'zbekistonni yangilash va rivojlantirish o'z yo'li to'rtta asosiy negiz asoslanadi . Bu negizlar:

- Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkalash va rivojlantirish;
- Insonnig o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;

- Vatanparvarlik”²⁵.

Mustaqil O'zbekistonning kuch- qudrati manbai - xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat , tenglik , ahil qo'shnihilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab- asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oily maqsadi anashu an'analarni qayta tiklash ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya , farovonlik , madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart- sharoit yaratishdir.

Insonparvarlik – bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shavqatsizlik va zo'ravonlik unig tabiatiga yotdir. Bizning xalqimiz o'zining voqealarga boy ko'p mingyillik tarixi davomida ko'p narsalarni boshidan kechirdi- madniyat, ilm- fan , o'z davlatchiligi yutuqlari nashidasini surdi, o'zaro nizolar , begonalar asorati alamini tortdi, eng yaxshi o'gil qizlaridan judo bo'ldi. Lekin tarixning o'yini ham, omonsiz jabgu jadallar ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog' tushura olmadi. O'zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug'lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg'usiga hamdardlik mujassamlashgandir.

Insonparvarlik - insonning yuksak ijtimoiy maqomini belgilab, bu boradagi diniy va dunyoviy va dunyoviy, g'oyaviy- mafkuraviy, milliy va umumbashariy qarashlar, mezonlar, tuyg'ular va tushunchalar, qadriyat va an'alar sistemasi , faoliyat darajasini asoslab beradigan ta'limotlar, umuman insoniylikka asoslangan faoliyat va xatti- harakatlarni anglatadi. G'arbda insonparvarlik tamoyilini dastlab Yevropa Uyg'onish davri mutafakkirlari ilgari surgan, degan qarash mavjud . Aslida , insonparvarlik sharqda paydo bo'lgan. “Bundan uch- to'rt ming yillar avval amal qilgan qadimgi shummir mixxatlarida insoniylik insonparvarlik degan ma'nolarni bildiradigan “namlulu” so'zini uchrashi , “Avesto”dagi “Ezgu fikr,

²⁵ Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston», 1998y. 56b

ezgu soʻz va ezgu amal” gʻoyasi bu fikrni tasdiqlaydi”.²⁶ Jahon dinlarining barchasida insonparvarlik gʻoyalari ustuvordir. Ayniqsa muqaddas islom dinining asosi va mohiyati insonparvarlikdan iborat. Chunonchi, hadisi sharifda “Olamlarga rahimli boʻlmagan kishiga ollohning ham rahmi kelmaydi” , degan soʻzlar orqali insonparvarlikka daʼvat etiladi. Oʻzbekiston sharq madaniyatining eng yaxshi anʼanalari yoʻlidan borib , mehmondoʻstlik va ahl doʻstlik eshigini keng ochdi, badargʻa qilinganlar, vatanidan judo boʻlganlar, urushlar va taʼqiblarning qurbonlari har doim Oʻzbekistonda boshpana topganlar , xalqimizning mehribonligidan bahramand boʻlganlar.

Vatanparvarlik vatanning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi mustaqilligining himoyasi yoʻlida fidoiylilik koʻrsatib yashash , ona xalqining ornomusi, shon-sharafi, baxt-u saodati uchun kuch-gʻayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va oliyjanob faoliyatdir. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra tushuncha boʻlib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, yangicha maʼno – mazmun bilan boyib rivojlanib boradi. Vatan mafaati qadr-qimmatini , taqdiri, istiqboli, ona yurtga muhabbat tuygʻusi qancha chuqur anglasa, vatanparvarlik tuygʻusini ham shuncha yuksak boʻladi. Tarixiy, ijtimoiy- siyosiy, maʼnaviy taraqqiyotning barcha boshqichlarida vatanparvarlikning yangi – yangi qirralari namoyon boʻlib boradi. Haqiqiy vatanparvarlik vatanga, ona zaminga, oʻz xalqiga muhabbat bilan yashash, uning istiqboli, mafaati yoʻlida tinimsiz mehnat qilish hamda kurashish zarurati tugʻilganda jonini fido qilishni nazarda tutadi. Har jabhada vatanimiz erishayotgan muvofaqqiyatlaridan quvonish, ogʻir kunlarida uning uchun qaygʻurish oʻz yurti bilan gʻururlanish, uning har bir qarich yeri, har bir gʻishti va giyohiga, qadimiy va zamonaviy obidalari, ilm – fan va sanʼatdagi yutuqlarini, moddiy va maʼnaviy boyliklarini koʻz qorachigidek asrab - avaylash – bularning barchasi vatanparvarlikdir.

²⁶ Maʼnaviyat asosiy tushunchalar izohli lugʻati, T: “Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyoti – matbaa ijodiy uyi”, - 2009y. 211b

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish, ularni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Inson o'z yurtini qanday bo'lsa shundayligicha sevishi uning rivoji uchun bor imkoniyatlarni ishga solishi lozim.

Vatanparvarlik vatanning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoiylilik ko'rsatib yashash, ona xalqining ornomusi, shon-sharafi, baxt-u saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va oliyjanob faoliyatdir. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra tushuncha bo'lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, yangicha ma'no – mazmun bilan boyib rivojlanib boradi. Vatan mafaati qadr-qimmatini, taqdiri, istiqboli, ona yurtga muhabbat tuyg'usi qancha chuqur anglasa, vatanparvarlik tuyg'usini ham shuncha yuksak bo'ladi. Tarixiy, ijtimoiy- siyosiy, ma'naviy taraqqiyotning barcha boshqichlarida vatanparvarlikning yangi – yangi qirralari namoyon bo'lib boradi. Haqiqiy vatanparvarlik vatanga, ona zaminga, o'z xalqiga muhabbat bilan yashash, uning istiqboli, mafaati yo'lida tinimsiz mehnat qilish hamda kurashish zarurati tug'ilganda jonini fido qilishni nazarda tutadi. Har jabhada vatanimiz erishayotgan muvofaqqiyatlaridan quvonish, og'ir kunlarida uning uchun qayg'urish o'z yurti bilan g'ururlanish, uning har bir qarich yeri, har bir g'ishti va g'iyohiga, qadimiy va zamonaviy obidalarini, ilm – fan va san'atdagi yutuqlarini, moddiy va ma'naviy boyliklarini ko'z qorachigidek asrab - avaylash – bularning barchasi vatanparvarlikdir.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish, ularni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, “ Barchamizga ma'lumki, inson o'zligini anglagani, nasl – nasabini chuqurroq bilgani sari Vatanga muhabbat tuygusi ildiz otib, ulg'ayib boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi. Albatta, jahon – keng, duyoda mamlakat ko'p lekin

bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka- yu yagona. Bu go'zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan... Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishq jo'sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Biz shunday ma'naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida vatandan faxrlanish hissi ko'zimizni, qalbimizni yashnatib tursin.”²⁷

²⁷ Karimov . I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, T: “ Ma'naviyat”, - 2008y . 90b.

II.2. Jomiy asarlaridagi umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi jamiyat hayotida aks etishi.

O'rta asrlar musulmon Sharq olamining buyuk mutafakkirlari qatorida mintaqamiz adabiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida o'zining boy va bebaho adabiy-badiiy, falsafiy-ijtimoiy, diniy-irfoniy va ilmiy-nazariy merosi bilan alohida o'rin tutgan, Movarounnahr va Xuroson zaminida yashab, fors-tojik va o'zbek mumtoz adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkir olim, shoir va Naqshbandiya tariqatining XV asrdagi yirik namoyandasi Mavlono Nuriddin Abulbarakot ibn Nizomiddin Ahmad ibn Muhammad Jomiy asarlari keng qamrovliligi bilan ajralib turadi.

Abdurahmon Jomiy XV asrda yashab ijod etgan bo'lsa-da, uning asarlari hozirgi kunga kelib ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Chunki uning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar barcha davrlarda eng dolzarb va umuminsoniy xarakterga ega bo'lganligi sababli necha asrlar davomida o'rganilib kelinmoqda.

Jomiy asar yaratar ekan unda ajoyib insonparvar hamda vatanparvar shoir sifatida buyuk va muhim ijtimoiy masalalar hal etish bilan mashg'ul bo'ladi, ular yuzasidan ilg'or fikrlarni ifodalaydi. U insonni ulug'laydi vatan g'aqida qayg'uradi. Odamlardagi zararli xulqlarni qoralaydi fitna va fujurni, xudbinlik va ayyorlikni, munofiqlik va aldamchilikni, tekinox'rlik va talonchilikni, keskin tanqid ostiga oladi. Shoir bunday illatlarga o'ralashib qolgan odamlarga halol, vijdonli, insofli, adolat odamlarini, chin insoniy fazilatlarini, ajoyib xulq-odob normalarini qarama-qarshi qilib qo'yadi.²⁸

Abdurahmon Jomiy o'zidan oldin o'tgan donishmandlar ta'limotlariga tayangan holda panteistik dunyoqarashni boyitdi, haqiqiy Borliq - Sof Nur va inson dunyosining, inson ruhiy va jismoniy ko'rinishlarining o'zaro munosabati va

²⁸ Shamsiyev, P, G'aniyeva. S "Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy", T:"Fan", - 1966 y

birliği haqidagi qarashlarni rivojlantirdi. Mutafakkir o'z qobiliyatli kuchini - jismoniy va ruhiy birlik mutanosibligini buzuvchi qusurlarni fosh etishga haratdi, haqiqiy umuminsoniy qadriyat - ahloqiy-ruhiy kamolotga intilishga chaqirdi. Uning g'oyaviy-nazariy, falsafiy mavqei ma'lum darajada qadimgi Osiyo, Chin, Hindiston hamda harbiy Yevropa ta'sirini, ayniqsa, qadimgi Yunon falsafiy madaniyati - Suhrot, Aflotun va ular izdoshlarining ta'sirini o'zida mujassamlashtirgan.

U o'zining "Lujjatul-asror" qasvdasida so'fiy xulq - axloqi, inson tarbiyasi haqida gap borganda ta'magirlikni qoralab, qanoatli kishilarning oliyjanobliklarini, ularning ma'naviy jihatdan podshoh va vazirlardan ham ustun ekanliklarini madh etib, quyidagi satrlarni bitgan:

Tome'oya az bahri gu'ma peshi har xas sar nihad,

Qone'onro xanda bar shohu vaziri kishvar ast.

Bu satrning mazmuni quyidagicha :

Ta'magirlar bir luqma uchun boshini xasga quyishga tayyor,

Qanoatchilar esa mamlakat shohi va vaziri ustidan ham kula oladi.

Ya'ni ta'magir inson o'z maqsadiga erishish uchun hatto o'z qadr – qimmatini , or-nomusini ham toptab, maqsadiga erishishga harakat qiladi . Bu esa uni jarlikka boshlab bora . Boriga shukur qilib, qanoat bilan halol yashayotgan insonlar esa ularning yashash tarzi, qilayotgan ishlarini mazhara qiladilar.

Jomiy yashagan davrda ko'proq shoh va vazirlar haqida madh etish yoki ularning ochko'zligi va xalqni og'ir ahvolga solib qo'yayotganligi haqida molohaza yuritish o'sha davr adabiyotining o'ziga xos yo'nalishlaridan biri hisoblangan . Biroq o'sha davrda bo'lgani kabi yuqori davlat organlarining o'z lavozimini suystemol qilishi bugungi kunda ham uchratishimiz mumkin. Shuning uchun ham bu kabi g'oyalar na makon, na zamon tanlaydi , bu g'oyalar o'lmas, umuminsoniy

g'adriyatlar bo'lib nihoyatda yuksak ahamiyatga ega . Ayniqsa bugungi murakkab hayot tarzidan foydalanib, ta'magirlik bilan kun kechirayotgan kimsalar ko'payib borayotgan bir davrda, Jomiyning faylasufona fikrlariga murojaat qilmasdan ilojimiz yo'q deb o'ylayman. Bunday hayot tarzini tanlagan kimsalar Jomiy aytganidek, boshini xas qo'yish ya'ni jinoyatga qo'l urishi va oxir oqibat o'z hayotini o'zi barbod qiladi. Jomiy fikricha, inson halol va pok yashashi, buning uchun esa u bir kasbga ega bo'lishi, o'z mehnati hisobiga kun ko'rishi zarur:

Mardi kosib kaz mashaqqat mekunad kafro durusht,

Bahri yaohamvoriyai nafari dag'al hongar ast.

Bu satrning mazmuni quyidagicha :

Kosib odam mehnat tufayli qo'lini qavartiradi,

Bu qo'ldagi dag'al esa nafs g'idir-budurini tekislovchi randadir.

Bu baytda Jomiy mehnatsevarlik g'oyalarini ilgari surib, inson halol mehnat qilib yashashi, biror kasbning yetuk mutaxasisi bo'lishi va shu orqali jamiyatda o'z o'rnini topishi lozimligini nazarda tutadi.

Shaxs komil inson sifatida shakillanishi uchun u o'z nafsini jilovlay bilishi, o'z manfaatini xalq manfaatlaridan ustun qo'ymasligi lozim. Yuqoridagi satrda ham inson o'z nafsini jilovlashi uchun halol yashashi lozimligi ta'kidlangan.

Nuqtai xush gufta ast on durbin,

Adil dora mulkro qoim , na din .

Kufir kishi k – o' ba adl oyad fareh,

Mulkro az zolimi dindor beh.

(U uzoqni ko'rguvchi odam yaxshi aytgan:

Mamlakatni din emas, adolat saqlaydi,

Adolat bilan mashhur bo'lgan kofir

Yurt uchun dindor zolimdan ko'ra yaxshiroqdir.)²⁹

Jomiy bu baytda adolatni har narsadan yuqori qo'yadi va adolat har bir inson uchun asosiy qonun bo'lishi zarurligini aytib o'tadi.

Jomiy dunyoqarashida dinlararo hamda mazhablararo urush va nizolar ma'nosizligi, insoniylik mohiyatiga, aqlga zidligi haqidagi g'oyalar ham mavzud. U bu kabi urushlarga nafrat bilan boqqanligi va qattiq qoralaganligini quyidagi ruboiysida ko'rishimiz mumkin:

Ey mug'bachai daxr, bedih chomi mayam,

Ki – omad zi nizoi sunniyu shi qayam.

Go'yand, ki: Jomiyo, chi mazhab dori?

Sad shukurki sag – sunniyu har – shiy nayam.³⁰

Mazmuni:

Ey soqiy! Menga may ber. Sunniylar va shialar nizosidan ko'nglim ayniyapti. Jomiy sen qaysi mazhabdasan? – deb so'raydilar. Yuz shukurki, it sunniyu, eshak shia emasman.

Bu baytda Jomiy birodarlik, tenglik, tinchlik, ahllik g'oyalarni targ'ib va tashviq etadi. Har xil tilda so'zlashuvchi yo har xil mazhabga mansub bo'lgan xalqlar, qabilalar o'rtasida adovat qo'zg'ovchi - taraqqiyotning ashaddiy dushmanlariga, nifoq yaratuvchilarga g'azab bilan xitob qilgan.

Bu baytda ilgari surilgan g'oyalaridan biri bu – diniy bag'rikenglik g'oyasidir. XV asrda din peshvolarining obro'yi nihoyatda katta bo'lgan. Davlatning ayrim

²⁹ Shamsiyev. P, G'aniyeva. S “Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy”, T:”Fan”, - 1966 y

³⁰ Qarang Safarova N.O. Terrorizm. –“ Noshir” nashriyoti . Toshkent, 2009y, 151b.

boshqaruv apparatlarini din peshvolari boshqargan. Ular faqat islom dinini tan olishgan boshqa dinga mansub kishilarni esa, g'ayri dinlar deb atashgan. Jomiy esa shu asrda yashab turib, diniy bag'rikenglik g'oyasini ilgari surganligini ko'rishimiz mumkin bu esa, o'sha davr uchun g'oyat ulkan yangiliklardan biri hisoblangan.

Jomiy vujudga kelgan ijtimoiy – siyosiy va madaniy – ma'naviy sharoit ta'sirida o'z falsafiy qarashlarining kishilar jamoalarining kelib chiqish sabablari haqidagi g'oyalarini o'ziga xos ravishda talqin qilib, jamiyat ravnaq topishi uchun, avvalo, jamiyatda mamlakatlararo urush va qirg'inliklar, dinlararo adovat, insonlararo nizo – janjallar barham topib, o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, odamlar o'rtasidagi o'zaro kelishuvga, ijtimoiy adolatga asoslangan orzudagi jamiyatni ajoyib badiiy lavhalar va timsollarda tarannum etgan. Masalan, Jomiyning “Hiratnoma – i Iskandar” asarida tilga olingan orzudagi mamlakat aholisi teng huquqli, bir – biri bilan hamkorlik va do'stlikda yashaydilar, umuman har qanday urush haqida, ayniqsa, diniy adovat asosida kelib chiquvchi urushlar haqida tasavurga ham ega emaslar.

Dinlarning umuminsoniy mohiyati, maqsadi bir bo'lib, ular aslida bir –

birlariga zid emas. Inson hayotining asl maqsadi inson va tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish, hamisha yaxshi savobli ishlarni amalga oshirishdan iboratdir “Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi – xilma – xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi”³¹. Bugungi kunga kelib diniy bag'rikenglik umuminsoniy g'adriyatlar tarkibiga kiruvchi tushuncha bo'lib, bu tushuncha davlatlararo tuzilgan xalg'aro shartnomalarning asosiy prinsiplaridan biriga aylangan. Xalqaro tashkilot YuNESKO diniy bag'rikenglik muammosiga alohida e'tibor berib, 1995 – yilni BMTning bag'rikenglik yili deb e'lon qilindi.

³¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: “O'zbekiston”, 2000, 60-b.

O'sha yili 16 – noyabrda 185 – davlat ishtirokida Parijda bag'rikenglik tamoyillari Dekloratsiyasi qabul qilindi.

Adolatlilik, odillik tamoyillari Jomiyning ko'pgina asarlarining bosh mavzusi hisoblanadi. U mamlakat boshlig'ini hamma uchun ideal shaxs ya'ni u barcha uchun o'rnak bo'la oladigan odil shaxs sifatida gavdalantiradi. Adolatli davlat boshlig'i o'zining emas, xalqning orzu – intilishlarini o'ylaydi va xalqning xohish – istagini inobatga olgan holda mamlakatni boshqaradi.

Jomiy asrlarida bu dunyoda insondan faqat yaxshi nom qolishini, u bu dunyoni tark etsa ham, nomi o'chmasligini uning qilgan ishlari va yaxshi fazilatlari uni abadiy tirikligini ta'minlashini ta'kidlab quyidagilarni yozgan:

Bir shoir yuzlanib buyuk xoqonga,
Deydi: ey, martabang yetsin osmonda.
Vasfingda bir yangi she'r aytdim bu gal,
Hikmat durlaridan baxsh etib sayqal.
Vasfingda yozildi ko'p ezgu kalom,
Lekin aytgan bilan bo'lmagan tamon.
Shoh qo'lga shu payt berdi bir qog'oz,
Unda yozilgandi shox nomi xolos.
Shoh dedi: “ Ey senda yo'q – ku aqlu xush,
Bunday maddohlikdan jim yurganing xush,
Nomimdan boshqa so'z bundan yo'q – ku bas,
Kishi nomi uning sharafi emas. ”³²

³² Abdurahmon Jomiy “Salomon va absol”

Albatta, bu yorug' olamda insonning nomi o'chmas bo'lib, asrdan asrga o'tib keladi. Har bir inson bu dunyoda yashar ekan o'zidan qandaydir nom qolishiga harakat qiladi. Kimdir yaxshi fazilatlari, kimdir qoldirgan adabiy merosi, kimdir o'zining namunali hayot yo'li orqali kelajak hayotga o'zining ismini o'chmas qilib muhurlaydi. Zero u bu yorug' olamda hayot bo'lmasada, uning qoldirgan merosi yaxshi fazilatlari uning nomini mangu barhayot bo'lishiga zamin yaratadi. Fikrim dalili sifatida Imom Buxoriy, Beruniy, Farobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy singari bobokalonlarimiz nomlarini necha yillar, necha asrlar osha mangu barhayotdir. Ular nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyo ahli uchun barhayotdir. Misol uchun biz biror chet mamlakatga borsak, u yerdagi aholi bizning mamlakatimizni bilmasligi mumkin, lekin biz yuqorida nomi keltirilgan qomusiy olim va buyuk sohibqiron bobokalonlarimizning nomlarini aytishimiz bilan ular bizning o'zbek milatiga mansubligimizni anglashadi va bizga o'zgacha bir hurmat ko'rsatishadi.

Jomiy boshqa bir asarida shu mavzuga to'xtalib quyidagi fikrlarni aytgan:

“ Zamon sahifalari – inson umrin daftari –

Shundayin so'zni demish o'yga tolgan bir dono:

Kimki bu pok kitobda yaxshi ishlari bilan

Yaxshi nomin qoldirsa, o'shaning baxti a'lo”.³³

Bugungi kunda yoshlarimizni ma'naviy jihatdan barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishni o'z oldimizga maqsad qilgan ekanmiz, yuqorida keltirilgan g'oya insonni inson sifatida kamol topishi uchun zarur bo'lgan fazilatlardan biri hisoblanadi. Bunday yuksak fazilatlar hozirgi kunda umuminsoniy qadriyatlar sifatida qadrlanadi.

³³Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” T: “Yangi asr avlodi”, - 2007 y

Jomiy insonga berilgan hayotiga tarziga shukur qilib yashashini olohi taollo inom etganiga qoniqib yashishi kerak deb hisoblaydi va quyidagi hikoyatni yozadi:

Xo'rozkim, boshida tikkaygan toji,

Namoz payti unga dedi bir hoji:

“Vaqtini senchalik bilmas hech dono,

Cho'chimas vaqt o'tsa senchalik also.

Hayoting kechibo aysh – taralloda,

Arzigay yashashang Arshi – a'loda.

Ortingdan ergashib bir to'p makiyon,

Kultepalar senga bo'libdir makon ”.

Dedi : “ Avval edi martabam ziyod,

Nafsu shahvat menga keltirdi isnod.

Nafsu shahvatdan kechsaydim, zinhor

Bunday axlat titib yashamasdim xor...”³⁴

Inson boriga shukur qilib yashashi, manmanlik va kibr – u havoga berilmasligi kerak. Agar bu kabi illatlarga oshno bo'lsa, hikoyatda keltirilgan tovuq singari axlat titib yuradi. Bu yerda tovuqmajoziy ma'no qo'llanilgan.

Bu hikoyat bugungi kun uchun ibratli rivoyatdek go'yo. Boriga qanoat qilmay mo'may daromad topish maqsadida chet elga ishga ketishni maqsad qiladi, natijada esa aldanib qolishadi. XXI asrga kelib odam savdosi dolzarb moammoga aylangan. Hozirgi kunda ma'naviy hayotdan moddiy hayot ustunligi oshib

³⁴ Abdurahmon Jomiy “Salomon va absol”

bormoqda. Shu sababdan insonlar ko'p miqdorda daromad ortirish maqsadida o'zga yurtga borib, uy yerda xor – zor bo'lib, o'z yurtiga qaytib kelishmoqda. Bu esa insonlarning o'chko'zligi nafs balosiga yo'liqqanligi sababli kelib chiqmoqda. Shu singari insonlarga xalqimizning ajoyib naqlini eslashlarini istardim: “O'zga yurtda shoh bo'lguncha – O'z yurtingda gado bo'l”.

Xulosa.

Mamlakatimizda insonparvar, demokratik jamiyat barpo etishning boshlanishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligining ta'minlanishi uchun real shart-sharoit yaratdi. Bu borada O'zbekistonda o'tkazilayotgan qator anjumanlar, tadbirlar millatimiz tarixi davomida vujudga kelgan qadriyatlarni umumjahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida shakllangan qadriyatlar bilan biriktirish imkoniyatini yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikka erishganidan keyin milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligini ta'minlashga alohida e'tibor berila boshlandi.

Umuminsoniy qadriyatlar va milliy qadriyatlarning mushtarakligini ta'minlash bugungi kun – globallashuv davrida bu ishni amalga oshirish bir muncha osonlashdi. Chunki globallashuv zamonaviy tamaddun rivojining yuqori bosqichi madaniyat bilan o'ziga xos munosabat tizimi shakllanib borishidir.

XXI asr – taraqqiyot asri, yoshlar o'z intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun ulkan imkoniyatlar asri. Hozirgi kunda yoshlarimiz ongi va xulq-atvorida mavjud imkoniyalarga javoban qadrlash e'tiqodini shakllantirishning yangi usullarini ishlab chiqish dolzarb masaladir. Chunki yoshlar tarbiyasini qadrlash g'oyasiga yo'naltirish jamiyatda ro'y berayotgan tahlikali vaziyatlarni oldini olib, mafkuraviy immunitetni hosil qiladi, o'zlikni anglashga, tarixiy xotirani mustahkamlashga yordam beradi. Qadrlash e'tiqodini shakllantirish jarayoni birdaniga va tasodifiy ro'y bermaydi. Zero, “ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi”³⁵.

³⁵ Karimov I.A. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. -T.: “O'zbekiston”, 2011. -B. 423.

Bizning diyorda azldan milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarak bo'lib, umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlar negizida ya'ni bizning buyuk allomalarimizning umuminsoniy g'oyalari asosida shakillangan. Abdurahmon Jomiyning asarlaridagi g'oyalar fikrim dalili bo'la oladi deb o'ylayman. Uning asarlari necha asrlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmagani ham shu sabablidir.

Bugungi kunda inson qalbi va ongini egallash uchun kurash ketayotgan bir davrda inson ongini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakillantirishimiz lozim. Inson qalbi va ongiga ta'sir etuvchi qudratli vositalardan biri bu badiiy adabiyotdir. Yuqorida fikr yuritilgan Abrahmon Jomiy asarlari mana shunday kuchga egadir. Uning har bir asari insonni befarq qoldirmay chuqur o'ylashga, mulohaza yuritishga undaydi. Insonlarni halol mehnat qilishga, biror bir kasb sohibi bo'lib xalqiga, vataniga foydasi tegadigan, uning rivojlanishi o'z hissasini qo'sha oladigan shaxs bo'lishga undaydi. Birgina "Bahoriston" asarida ko'rib o'tilgan g'oyalar fikrim dalili bo'la oladi.

Jomiyning "Hiratnoma – i Iskandar" asaridagi diniy bag'rikenlik nuqtai nazaridan bayon qilingan g'oyalarning katta g'oyaviy va ,hatto, ma'lum darajada mafkuraviy ahamiyati shundaki, u teokratik boshqarish usuluni, ya'ni davlatni dinga bo'ysundirish, din nazorati ostida boshqarishni inkor qilgan. Masalan, ushbu asardagi ijobiy va orzudagi (ideal) shoh Iskandar davlatni boshqarishda maslahatchi sifatida biror – bir din peshvosi va rahnamosiga muhtoj bo'lmagan holda namoyon bo'ladi. Demak davlatni boshqarishda, asosiy tamoyili din ko'rsatmalari emas, ba'lki ma'rifat va adolatdir.³⁶

Bugungi kunda dini niqob qilib olib, diniy ekstremistik g'oyalarni ilgari surayotgan ayrim guruhlarining harakatlariga qarshi targ'ibot ishlarini olib borishda Jomiyning bu boradagi g'oyalari nihoyatda katta manba bo'la oladi. Shu sababli shu mavzuga oid ma'rifiy – ma'naviy tadbirlar o'tkazilsa, maqsadga muvofiq

³⁶ Qarang Safarova N.O. Terrorizm. –" Noshir" nashriyoti . Toshkent, 2009y, 153b.

bo'lar edi.

Agarda biz yosh avlodni mana shunday g'oyalar bilan to'yintirsak bizning yurtga tadid solayotgan g'oyalarga qarshi kuchli mafkuraviy immunitetga ega bo'lamiz deb o'ylayman. Zero yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "Fikrga qarshi fikr g'oyaga qarshi g'oya jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish"³⁷. Bu asarlarning barhyotligi va o'z ahamiyatini yo'qotmasligi ham shu sababdandir. O'ylanmanki, bunday asarlar bizning asrimizdan keyin ham o'rganiladi.

Buning uchun esa Jomiyning umuminsoniy xarakterga ega bo'lgan g'oyalarini maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan darsliklarga, xususan "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" darsligi, "Adabiyot" darligida alohida mavzu qilib o'tilishi, o'ylaymanki, yosh avlodni barkamol shaxs sifatida kamol topishi uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda yana bir muhim masalaga to'xtalmoqchi edim. Bu masala insonlar o'rtasida do'stlik, birodarlik tuyg'ularining yo'qolib borayotganligidir. Hozirgi kunda insonlar do'stlik degan tushuncha asl ma'nosini yo'qolib manfaat, foyda degan tushunchalar bilan qorishib ketmoqda. Shu sababli do'stlik tushunchasining asl ma'nosini tushuntirish uchun maktab, kollej, akademik letsiylarda "Jomiy va Navoiy ilohiy do'stlik haqida" deb nomlangan ma'rifiy – madaniy tadbirlar o'tkazilsa ular bu ikki buyuk allomadan o'rnak olib, samimiy do'stlik tuyg'ulari qanaqa bo'lishi his qilgan bo'lar edilar.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, XXI asr fan – texnika eng rivojlangan asri bo'lganligi, globallashuv jarayonlarining jadallashishi tufayli jamiyat hayotida tub o'zgarish sodir bo'lmoqda. Bu o'zgarishlar ayrim qadriyatlarimizni yo'qolib ketishiga sabab bo'lmoqda, shuning uchun ham Jomiy singari allomalarning asarlaridagi bashariyatga tegishli qadriyatlar va g'oyalar biz uchun nihoyatda qadrli va zarur hisoblanadi.

³⁷ Karimov . I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, T: " Ma'naviyat", - 2008y 119b

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A.” O’zbekiston buyuk kelajak sari”. T., «O’zbekiston», 1998y.
2. Karimov I.A. “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida”. Asarlar, 6-jild –T.: “O’zbekiston”.1998y.
- 3.Karimov. I.A “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. -T.: “Ma’naviyat”, 2008.
4. Karimov.I.A “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. -T.: “O’zbekiston”, 2011 y.
5. Karimov.I.A “Istiqlol va Ma’naviyat” . – T. : “O’zbekiston”, 1993y
6. Karimov. I.A “O’zbekiston: milliy istiqlool, iqtosod, siyosat, mafkura” I jild . – T. : “O’zbekiston”, 1996y
7. Karimov. I.A “Bizdan ozod va obod vatan qolsin”II jild. – T. : “O’zbekiston”, 1996y
8. Karimov. I.A “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”III jild. – T. : “O’zbekiston”, 1996y
9. Karimov. I.A”Bunyodkorlik yo’lida”IV jild.– T. : “O’zbekiston”, 1996y
10. Karimov. I.A “Yangicha fikrlash davr talabi”V jild. – T. : “O’zbekiston”, 1997y
11. Karimov. I.A” Xavsizlik va barqarolik taraqqiyot yo’lida” VI jild – T. : “O’zbekiston”, 1998y
12. Karimov. I.A “Biz kelajagimizni o’z qolimiz bilan quramiz”VII jild– T. : “O’zbekiston”, 1999y
13. Karimov. I.A “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish pirovard maqsadimiz”VIII jild. – T. : “O’zbekiston”, 2000y

14. Karimov. I.A “Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz”IX jild. – T. : “O’zbekiston”, 2001y
15. Karimov.I. A “Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak”X jild. – T. : “O’zbekiston”, 2002y
16. Karimov.I.A “Biz tanlagan yo’l - demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo’li ”XI jild. – T. : “O’zbekiston”, 2003y
- 17.Karimov. I.A “Tinchlik va xavfsizligimiz o’z kuch – qudratimizga,hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog’liq”XII jild. – T. : “O’zbekiston”, 2004y
18. Karimov. I.A “O’zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo’lmaydi”XIII jild.– T. : “O’zbekiston”, 2005y
- 19.Karimov. I.A “Inson va uning qadriyatlari oily qadriyat” XIV jild– T. : “O’zbekiston”, 2006y
20. Karimov. I.A “Jamiyatimizni erkinlashtirish islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizni hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir”XV jild. – T. : “O’zbekiston”, 2007y
21. Karimov. I.A “Mamlakatimizni madernizatsiya va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo’lida ”XVI jild. – T. : “O’zbekiston”, 2008y
22. Karimov. I.A “Vatanimizning bosqichma – bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oily maqsadimiz ” XVII jild. – T. : “O’zbekiston”, 2009y
23. Karimov.I.A “Jahon inqirozining oqibatlarini kengish, mamlakatimizni madernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko’tarilish sari” XVIII jild. – T. : “O’zbekiston”, 2010y

24. Karimov. I.A “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakillantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezon”XIX lild. – T. : “O’zbekiston”, 2011y
25. Karimov. I.A “Bizning y’limiz - demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo’lidan” XX jild. – T. : “O’zbekiston”, 2012y
26. Karimov. I.A “Mamlakatimizni yanada obod etishva modernizatsiya qilishni qat’iyat bilan davom ettirish yo’lida ”XXI jild. – T. : “O’zbekiston”, 2013y
27. Karimov.I.A “Taraqqiyotimiz va faravonligimizning huquqiy asosi” O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yiliga bag’ishlangan tantanali marosimdagi maruzasi. 06.12.2013
28. Falsafa. E.Yu. Yusupov, S.Sh. Shermuhammedov, A.T.Ayupov va boshq. To’ldirilgan 2-nashri. –T.: O’qituvchi. 2005.
29. Falsafa asoslari. O’z FA Falsafa va huquq instituti O’zbekiston faylasuflari hamjamiyati. –T.: O’zbekiston. 2005. 322-b.
30. Milliy g’oya: targ’ibot texnologiyalari va atamalar lug’ati. –T.: Akademiya. 2007
31. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug’ati, T: “G’afur G’ulom nomidagi nashriyoti – matbaa ijodiy uyi”, - 2009y.
32. Nazarov Qiyom Normirzayevich. Qadriyatlar tizimi: Barqarorlik va o’zgaruvchanlik dialektikasi (aksiologiyaning ijtimoiy-falsafiy muammolari): F.f.d. dis.: 09.00.11 \ O’zR.FA. Falsafa va huquq instituti. –T.: 1996y.
33. Qambarov Abdumutal Axadjonovich. Jamiyatning ma’naviy yangilanishi jarayonida ilmiy qadryatlarning roli: Mutaxassislik 09.00.11. Ijtimoiy falsafa / Fal.fan.nom. il.dar.ol.u-n yoz.dis. Farg’ona davlat universiteti. –Farg’ona. 2006y.

34. Norqulov. N “ Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar”, Urganch: “Xorazm” , - 1996 y .
35. Shamsiyev. P, G’aniyeva. S “Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy” , T:”Fan”, - 1966 y.
36. “Nuriddiun Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy” Tavalludining 595 yilligi munosabati bilan Metodik-bibliografik qo`llanma, T: 2009 y
37. Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” T: “Yangi asr avlodi” , - 2007 y
38. Abdurahmon Jomiy “Salomon va absol”
39. Safarova N.O. Terrorizm. –“ Noshir” nashriyoti . Toshkent, 2009y, 151-155 b